B) shahar kambag'allari va hunarmandlar
C) A va B
D) faqat forslar

210.(7.j.-11)Qaysi qo'zg'olon natijasida Umaviylar hukmronligi (661-750) tugatilib, xalifalikda boshqaruv yangi sulola Abbosiylarga (750-1258) o'tdi?
A) Iroqning Kufa shahrida 685-yili ko'tarilgan qo'zg'olonda
B) 747-yili Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olonda
C) Ozarbayjonda 815-yili Bobek boshchiligidagi qo'zg'olonda
D) Sug'diyonada 769—783-yillardagi Muqanna boshchiligida qo'zg'olonida

211.(7.j.-11)Arab xalifaligi qaysi yillarda faoliyat yuritgan?
A) 661-750-yillarda
B) 632-750-yillarda
C) 570-1258-yillarda
D) 632-1258-yillarda

212.(7.j.-11)Arab xalifaligida Umaviylar qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
A) 661-750-yillarda
B) 632-750-yillarda
C) 570-1258-yillarda
D) 632-1258-yillarda

213.(7.j.-11)Arab xalifaligida Abbosiylar sulolasi qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
A) 661-750-yillarda
B) 632-750-yillarda
C) 750-1258-yillarda
D) 632-1258-yillarda

214.(7.j.-11)Tarixda qaysi qo’zg’alon "qizil ko'ylaklitar" nomini olgan?
A) Iroqning Kufa shahrida 685-yili ko'tarilgan qo'zg'olon
B) 747-yili Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olon
C) Ozarbayjonda 815-yili Bobek boshchiligidagi qo'zg'olon
D) Sug'diyonada 769—783-yillardagi Muqanna qo'zg'oloni

215. (7.j.-11)Kim 1258-yili Bag'dodni bosib olib, Arab xalifaligiga chek qo'ydi?
A) Mo'g'ul xoni Xuloku
B) Abu Muslim
C) Bobek
D) Muqanna

216.(7.j.-11)Arab xalifaligidan birinchi ajralib chiqqan mustaqil davlat bu….?
A) 685-yili Iroqning Kufa shahri
B) 747-yili Abu Muslim davlati
C) 815-yili Ozarbayjonda Bobek davlati
D) 756-yili Ispaniyadagi Qurdoba (Kordova) amirligi

217.(7.j.-12) IX asr boshlarida kimning saroyida "Bayt ul-hikma" - "donishmandlik uyi" tashkil etildi?
A) xalifa Horun ar-Rashid
B) xalifa Ma'mun
C) xalifa Umar
D) xalifa Marvon II

218.(7.j.-12) Yevropa tibbiyoti nechanchi asrga qadar bilim va amaliy tavsiyalarni O'rta Osiyoda yetishib chiqqan alloma: Abu Ali ibn Sino va Abu Bakr ar-Roziylar asarlaridan olgan?
A) XV asrga qadar
B) XVI asrning o'rtalariga qadar
C) XVII asrning o'rtalariga qadar
D) XVIII asrga qadar

219.(7.j.-12) Arab xalifaligida nimalar ixtiro qilingan?
A) Kompas va xarita
B) Globus va usturlob (astrolyabiya)
C) Lupa va linza
D) Kompas va lupa

220.(7.j.-12) Kim IX asrda matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos soladi?
A) Muhammad Xorazmiy
B) Ibn Dast
C) Ibn Fadlan
D) Al-Farg’oniy

221.(7.j.-12) Arab xalifaligining qaysi shaharlarida rasadxonalar barpo etilgan?
A) Basra va Marvda
B) Madina va Makkada
C) Qurdoba va Samarqandda
D) Bag'dod va Damashqda

222.(7.j.-12) Al-Humro saroyi qaerda joylashgan?
A) Granada (Ispaniya)da
B) Kordova (Ispaniya)da
C) Qohira (Misr)da
D) Buxoro (O”zbekiston)da

223.(7.j.-12) Hasan masjidi qaerda joylashgan?
A) Granada (Ispaniya)da
B) Kordova (Ispaniya)da

C) Qohira (Misr)da
D) Buxoro (O’zbekiston)da

224.(7.j.-12) Ismoil Somoniy maqbarasi qaerda joylashgan?
A) Granada (Ispaniya)da
B) Buxoro (O’zbekiston)da
C) Kordova (Ispaniya)da
D) Qohira (Misr)da

225.(7.j.-12) Arabeska naqshlari bu…?
A) toshga o'yilgan naqshlar
B) rangli sopol plitkalar
C) arab yozuviga o'xshash, jimjimador naqshlar
D) ho’l suvoqqa ishlangan naqshlar

226.(7.j.-12) Islom dinida tirik jonzotlarni tasvirlash taqiqlangani haqidagi aqida keng tarqalgan. Aslida…?
A) Payg’ambarni tasvirlash va unga sig'inish taqiqlangan.
B) Xudoni tasvirlash, shuningdek, tasvirlangan narsalarga sig'inish taqiqlangan.
C) Inson qiyofasini tasvirlash, unga sig'inish taqiqlangan.
D) Xayvon qiyofasini tasvirlash, unga sig'inish taqiqlangan.

227.(7.j.-12) Xristianlar uchun eng muqaddas tasvir xochdagi xudo siymosi bo'lsa, musulmonlar uni?
A) xudoning so'zida tasvirlaganlar.
B) murakkab naqshlarda tasvirlaganlar.
C) ko'p sonli odamlar va hayvonlarda tasvirlaganlar.
D) Payg’anbarning so'zida tasvirlaganlar.

228.(7.j.-12) Musulmonlar san'atining asosi tasvir emas balki…?
A) Minyatura san'ati bo'lgan
B) So’z san'ati bo'lgan
C) Xattotlik, ya'ni chiroyli yozish san'ati bo'lgan
D) Kitob tayyorlash san'ati bo'lgan

229.(7.j.-12) 28 ta harfdan iborat, chapdan o'ngga emas, o'ngdan chapga tomon bitiladigan arab yozuvi qachon va qaerda yaratilgan?
A) Makkada II asrda arab xristianlari ixtiro qilgan misr alifbosi asosida yaratilgan
B) Falastinda III asrda finikiyaliklar ixtiro qilgan alifbo asosida yaratilgan
C) Suriyada VI asrda oromiylar yoki arab xristianlari ixtiro qilgan oromiy alifbosi asosida yaratilgan
D) Movvoraunnahrda V asrda sug’diylar ixtiro qilgan sug’diy alifbosi asosida yaratilgan

230.(7.j.-12)Bag'dodda xalifa Horun ar-Rashid saroyida xizmat qilgan, yillar o'tib Ispaniyaga ko'chib ketgan va u yerda hayotga yangi kiyimlar va tartiblar kiritishda beqiyos rol o’nagan shaxs?
A) Ibn Dast
B) Ibn Fadlan
C) Bobek
D) Ziriyab

231.(7.j.-13) Kushonlar imperiyasining inqirozidan so'ng Hindistonda hokimiyatni egallagan Chandragupta I (320-340) guptalar sulolasiga asos soladi. Guptalar davlatining poytaxti bu...?
A) Pataliputra
B) Dehli
C) Kalikut
D) Panjob

232.(7.j.-13) Qaysi asrlarda Guptalar imperiyasi gullab-yashnagan?
A) III asr boshlarida
B) III asrning oxiri — IV asr boshlarida
C) IV asrning oxiri — V asr boshlarida
D) VI asrning oxiri — VII asr boshlarida

233.(7.j.-13)Ilk o'rta asrlarda Hindiston aholisining kasta-varna qoidalariga ko’ra o’lgan hayvon terisini kimlar shilishgan?
A) Braxmanlar
B) Kshatriyalar
C) Vayshilar
D) Shudralar

234.(7.j.-13)Qaysi kasta vakillariga soqolini o'zi olishi, kirlarini yuvishi taqiqlangan?
A) Braxmanlar
B) Kshatriyalar
C) Vayshilar
D) Shudralar

235.(7.j.-13)Ilk o'rta asrlarda Hindistonda shakllangan ijtimoiy munosabatlarda qulchilik udumlari ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Ammo qullar mehnatidan ishlab chiqarishda emas balki…?
A) Faqat urushlarda foydalanilgan
B) Uy yumushlarida foydalanilgan
C) San’at asarlarini yaratishda foydalanilgan
D) Jinoyatlarni amalga oshirishda foydalanilgan

236.(7.j.-13)Kimlarning hujumlari natijasida Guptalar imperiyasi parchalanib ketadi?
A) Hindiston janubidan II asrda bostirib kirgan kushonlar hujumlari natijasida
B) Hindiston shimolidan III asrda bostirib kirgan oriylar hujumlari natijasida

C) Hindiston shimoli-g'arbidan IV asrda bostirib kirgan makedonlar hujumlari natijasida
D) Hindiston shimoli-g'arbidan VI asrda bostirib kirgan eftaliylar hujumlari natijasida

237. (7.j.-13)VII asrda Hindistonda bo’lgan va unda 70 ga yaqin katta-kichik knyazliklar bo'lganligini yozgan tarixchi bu….?
A) Xitoy tarixchisi Sim Syan
B) Yunon tarixchisi Strabon
C) Xitoy tarixchisi Syuan Szyan
D) Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf

238.(7.j.-13)Hindistonda in'om etilgan yer maydoni nima deb nomlangan?
A) syulg’ol
B) grass ("bo'lak" yoki "qultum")
C) patta ("yorliq" yoki "yorliqqa olingan yer")
D) iqto

239.(7.j.-13)Rojalar o'z xonadoniga mansub bo'lmagan amaldorlarga yerni ma'lum muddatga foydalanishga bergan. Bunday yerlar …?
A) patta ("yorliq" yoki "yorliqqa olingan yer")
B) syulg’ol
C) grass ("bo'lak" yoki "qultum")
D) iqto

240.(7.j.-13)Kim XI asr boshlarida Hindiston shimoliga 17 marta bosqinchilik yurishlari uyushtirgan?
A) Andijon hukmdori Bobur
B) Movaraunnahr hukmdori Ismoil Samoniy
C) G'azna hukmdori Mahmud
D) Xorazm hukmdori Otsiz

241.(7.j.-13)Eng yirik port-shahar Kalikut hokimi Hindistonda nima deb atalgan?
A) "hindiston hokimi"
B) "dengizlar hukumdori"
C) "dengiz ajdarhosi"
D) "dengiz xo'jayini"

242.(7.j.-13)Hindistonda (miloddan avvalgi II asrdan — milodiy VII asrga qadar) g'or ichida o'yib ishlangan ibodatxonalarning eng mashhuri bu…?
A) Ajanta ibodatxonasi
B) Dehli ibodatxonasi
C) Kalukut ibodatxonasi
D) Gupta ibodatxonasi

243.(7.j.-14) Qadimgi Xan quldorlik imperiyasi III asrda inqirozga uchrab, uning o'rnida 3 ta mustaqil davlatlari vujudga keladi. Ular….?
A) Vey, Xan va U Di
B) Sin, Shu va Gaochan
C) Tan, Vey va Shu
D) Vey, Shu va U

244.(7.j.-14) VI asrning ikkinchi yarmida Xitoyning birlashuviga nima turtki bo'ldi?
A) Ko’chmanchi Xun qabilalari istilosi xavfi
B) Xuanxe va Yanszi daryolaridagi toshqin xavfi
C) Turk xoqonligi istilosi xavfi
D) Davlatchilikni butunlay yo’qolib ketish xavfi

245.(7.j.-14) VI asr oxiri va VII asr boshlarida qaysi sulola Xitoyda markazlashgan davlat yuzib, o'zaro urushlarga barham berdi?
A) Tan sulolasi
B) Suy sulolasi
C) Vey sulolasi
D) Shu sulolasi

246.(7.j.-14) Xitoyning shimoli-g'arbidagi mahalliy hokimlardan biri Li Yuan 618-yili Suy sulolasi ag’darib qaysi sulolasiga (618-907) asos soladi?
A) U Day sulolasiga
B) Li sulolasiga
C) Sun sulolasiga
D) Tan sulolasiga

247.(7.j.-14) Xitoyda Xuanxe va Yanszi daryolari ora-lig'idagi hududlarni savdo-sotiq mu-nosabatlariga tortgan va sharqiy viloyatlarni dengizga chiqishiga sharoit yaratib bergan Buyuk kanal qaysi sulola davrida quriladi?
A) Tan sulolasi (618-907) davrida
B) U Day sulolasi (907-960) davrida
C) Suy sulolasi (589-618) davrida
D) Sun sulolasi (960-1279) davrida

248. (7.j.-14) Tan imperiyasi davrida 624-yili qabul qilingan qonunga ko'ra, har bir xo'jalik uy-hovlisi o'rnidan tashqari qanchagacha haydaladigan yerni ijaraga olish huquqiga ega bo'lgan?
A) 60 mugacha (1 mu - 8 sotix)
B) 70 mugacha (1 mu - 12 sotix)
C) 80 mugacha (1 mu - 6 sotix)
D) 90 mugacha (1 mu - 10 sotix)

249.(7.j.-14) Tan imperatorlari a'yonlarning mavqelari: unvon va lavozimlariga qarab qanchagacha yer bilan taqdirlanganlar?
A) 50 mudan 50 ming mugacha
B) 500 mudan 10 ming mugacha
C) 5 mudan 10 mugacha
D) 5000 mudan 100 ming mugacha

250.(7.j.-14) Tan imperatorlari shahar devoridan kimda-kim kechasi oshib o'tsa, qancha darra kaltaklanishni joriy etganlar?
A) 50 darra
B) 60 darra
C) 70 darra
D) 80 darra

251.(7.j.-14) Xitoyda eng yirik bozor joylashgan edi?
A) Pxenyanda
B) Yanchjouda
C) Pekinda
D) Gaochanda

252.(7.j.-14) Xitoyda VII asrda joriy etilgan yag-ona pul qanday nomlangan?
A) Vonn
B) Yuan
C) Iyena
D) Syan

253.(7.j.-14) Xitoyda VII asrda zarb qilingan tanga pulni o'rtasida to'rtburchak teshigi bo'lib u…?
A) Milliy ramz edi.
B) Ipga tizishga mo'ljallangan edi.
C) Metalni iqtisod qilish uchun edi.
D) Maxsus sir edi.

254.(7.j.-14) Tan sulolasinig G'arbiy Turk xoqonligiga qarshi 657—679-yillarda urushlar I natijasi…?
A) G'arbiy Turk xoqonligi qo'shinlari g'alabasi bilan tugaydi.
B) Janglar natijasiz tugaydi.
C) O'zaro kelishuv bilan tugaydi.
D) Xitoy qo'shinlari g'alabasi bilan tugaydi.

255.(7.j.-14)Tan sulolasinig Koreyaga qarshi 668-yili boshlangan urushi…?
A) Koreya poytaxti Pxenyanning olinishi bilan tugaydi.
B) Janglar natijasiz tugaydi.
C) O'zaro kelishuv bilan tugaydi.
D) Koreya qo'shinlari g'alabasi bilan tugaydi.

256.(7.j.-14)Ilk o'rta asrlarda Xitoyda hukmronlik qilgan sulolalar tartibini to'g'ri ko'rsating.
a) Tan
b) U Day
c) Sun
d) Suy
A) a, d, b, c
B) b, d, a, c
C) c, a, d, b
D) d, a, b, c

257.(7.j.-14)Xitoyda Xanlin akademiyasi qachon tashkil qilingan?
A) VI asrda
B) VII asrda
C) VIII asrda
D) IX asrda

258.(7.j.-14)Xitoyda selitradan porox olishni qachon kashf qilingan?
A) IX asrda
B) X asrda
C) XI asrda
D) XII asrda

259.(7.j.-14) Pekinda VIII asrdan boshlab qanday nom bilan gazeta chiqarilgan?
A) "Poytaxtnoma"
B) "Poytaxt axboroti"
C) "Pekin axboroti"
D) "Pekin yilnomasi"

260. (7.j.-14)Pekinda VIII asrdan boshlab chiqarilgan gazetaning nushalari qanday yo'l bilan ko'paytirilgan?
A) yog'ochda o'yib yozilgan matndan ko'paytirishgan.
B) toshga o'yib yozilgan matndan ko'paytirishgan.
C) Metalga yozilgan matndan ko'paytirishgan.
D) Matn yozuvchi xattotlar yordamida ko'paytirishgan.

261.(7.j.-14) Xitoyda tashkil etilgan dastlabki pantomima bu…?
A) Ko'rgazma - galareya
B) Imo-ishora teatri
C) Buddizm teatri
D) Rassomlar maktabi

262.(7.j.-15) Yevropada X—XI asrlarda ishlab chiqarish yuksalishi…?
A) eng avvalo dehqonchilikda kuzatiladi.
B) eng avvalo temirchilikda kuzatiladi.
C) eng avvalo chorvachilikda kuzatiladi.
D) eng avvalo hunarmandchilikda kuzatiladi.

263.(7.j.-15) Movut bu..?
A) Zig'irpoya matosi
B) Jundan to'qilgan mato
C) Paxta matosi
D) Ipak matosi

264.(7.j.-15) Nimani kashf etilishi plugni otga qo'shib yerni haydashni tezlashtiradi?
A) G'ildirakni
B) Aravani
C) Bo'yinturuqni

D) Ot taqasini

265.(7.j.-15) Fransiyaning shimolida, Niderlandiya, Angliya va Germaniyada yangi shaharlar qaysi asrlarda vujudga keladi?
A) X-XI asrlarda
B) XI-XII asrlarda
C) XII-XIII asrlarda
D) IX-XII asrlarda

266.(7.j.-15) Vengriya, Boltiqbo'yi va Rus yerlarida esa shaharlar ….. asrlardan ko'paydi.
A) X-XI asrlardan
B) XI-XII asrlardan
C) XII-XIII asrlardan
D) IX-XII asrlardan

267.(7.j.-15) Ko'pincha shaharlar o'z erkinligini ….. qo'lga kiritgan.
A) qo’zg’alon evaziga
B) to'lov va pul evaziga
C) doimiy urushlar evaziga
D) shaharlar erkinlik shart bo’lmagan

268.(7.j.-15) Yevropada monastirlar yonida barpo qilingan shaharlarni toping.
A) Strasburg, Gamburg Augsburglar
B) Padeborn, Bremen
C) Sveybryukken, Bryuggelar
D) Myunster, Sen-Gallen, Sen-Dene

269.(7.j.-15) Yevropada feodallar qal’alari atrofida barpo qilingan shaharlarni toping.
A) Strasburg, Gamburg Augsburglar
B) Padeborn, Bremen
C) Sveybryukken, Bryuggelar
D) Myunster, Sen-Gallen, Sen-Dene

270.(7.j.-15) Yevropada shahar kengashi binosi bu…?
A) Forum
B) Ratusha
C) Sex
D) Ikona

271.(7.j.-15) Yevropa shaharlaridagi uylarning aksari qismi ... qurilgan?
A) toshdan
B) g’ishtdan
C) paxsadan
D) yog'ochdan

272.(7.j.-15) O'rta asr Yevropasida ko'pchilik shaharlar aholisi …?
A) 2-4 mingdan ortmagan
B) 3-5 mingdan ortmagan
C) 5-7 mingdan ortmagan
D) 6-8 mingdan ortmagan

273.(7.j.-15) O'rta asr Yevropasida 80-100 ming aholi yashagan eng yirik shaharlarni toping.
A) Parij, Milan, London, Kordova,
B) Konstantinopol, Florensiya, Parij, Seviliya
C) Konstantinopol, Milan, Rim, Kordova, Gamburg, Sen-Gallen
D) Konstantinopol, Milan, Florensiya. Kordova, Seviliya

274.(7.j.-15) Shaharda epidemiyalar paytida boylar o'zlarining dala hovlilarida jon saqlaganlar. Ular shaharga qaytishlaridan avval…?
A) uylarini sotib yuborgan va yangi uy sotib olgandan so'ng ko'chib kelganlar.
B) uylarini sahar tabiblari yordamida dizinfeksiya qildirib so'ng ko'chib kelganlar.
C) uylariga kambag'allardan yashashga qo'yib, u kasallikka chalinmasagina so'ng ko'chib kelganlar.
D) uylaridagi barcha narsalarni yoqib yoki kambag'allarga tarqatgandan so'ng ko'chib kelganlar.

275.(7.j.-15) Sex bu…?
A) nemischa so'z bo'lib, xalfaning ustalikka bag'ishlov ziyofati nomi, keyinchalik kasb ustalari uyushmasi nomiga aylangan.
B) lotinch so'z bo'lib, shogirdning ustaga vadasining nomi, keyinchalik kasb ustalari uyushmasi nomiga aylangan.
C) nemischa so'z bo'lib, ustani shogirdga bergan ish qurolining nomi, keyinchalik kasb ustalari uyushmasi nomiga aylangan.
D) yunoncha so'z bo'lib, yirik ustalar ziyofatining nomi, keyinchalik kasb ustalari uyushmasi nomiga aylanggan.

276.(7.j.-15) Sexlarda xalfalik muddati va sharti qanday bo’lgan?
A) kasbning murakkabligiga qarab 3— 6 yil bo'lib, nodir buyum (shedevr) yasash va uni sex oqsoqoli sinovidan o'tkazish bilan tugagan.
B) kasbning murakkabligiga qarab 3— 5 yil bo’lib, nodir buyum (shedevr) yasash va uni katta usta sinovidan o'tkazish bilan tugagan.
C) kasbning murakkabligiga qarab 2— 7 yil bo’lib, nodir buyum (shedevr) yasash va uni sex oqsoqoli sinovidan o'tkazish bilan tugagan.
D) kasbning murakkabligiga qarab 2— 8 yil bo’lib, nodir buyum (shedevr) yasash va uni sex jamoasi sinovidan o'tkazish bilan tugagan.

277.(7.j.-15) Sexlar ixtiyorida qanday narsalar bo’lgan?
A) gerb, qo’shin, ibodatxona va alohida bozor
B) gerb, bayroq, ibodatxona va alohida qabriston

C) madhiya, bayroq, ibodatxona va alohida qishloq
D) gerb, bayroq, ustaxona va qabriston

278.(7.j.-15) Dastlab ishlab chiqarishning rivojlanishiga xizmat qilgan sexlar, nechanchi asrlardan unga to'sqinlik qila boshladilar?
A) XII—XIII asrlardan
B) XIII—XIV asrlardan
C) XIV—XV asrlardan
D) XV—XVI asrlardan

279.(7.j.-16) G'arbiy Yevropada XIII-XV asrlarda: Ispaniya, Italiya, Janubiy Fransiyani dengiz orqali Vizantiya hamda Osiyo mamlakatlari bilan bog'laydigan yo'l bu…?
A) Levant
B) Ganza
C) Shimoliy savdo yo'li
D) Sharqiy savdo yo'llari

280.(7.j.-16) G'arbiy Yevropada shimolda XIII-XV asrlarda Boltiq dengizi orqali London, Bryugge, Lyubek, Novgorod shaharlarini bog'laydigan yo'lbu…?
A) Levant
B) Ganza
C) Shimoliy savdo yo'li
D) Sharqiy savdo yo'llari

281.(7.j.-16) Shimoliy savdo yo'li bo'ylab joylashgan Germaniyaning 70 dan ziyod katta-kichik shaharlarini birlashtirgan ittifoq bu…?
A) Levant shaharlar ittifoqi
B) Ganza shaharlar ittifoqi
C) Shimoliy shaharlar ittifoqi
D) Sharqiy shaharlar ittifoqi

282.(7.j.-16) Ganza shaharlar ittifoqining bosh shahri bu…?
A) Venetsiya
B) Genuya
C) Gamburg
D) Lyubek

283.(7.j.-16) Venetsiyalik savdogarlar Pololar oilasi vakili Marko Polo XIII asrda Osiyoga safar qiladi. U 25 yil davom etgan sayohatining necha yilini Xitoyni egallagan mo'g'ullar xoni Xubilay saroyida o'tkazadi?
A) 15 yilini
B) 16 yilini
C) 17 yilini
D) 18 yilini

284.(7.j.-16) Yevropaliklar qachon dengiz orqali o'tib, XIII asrda Marko Polo sayohat qilgan o'lkalarni o'z ko'zlari bilan ko'radilar?
A) faqat XVI asrda
B) faqat XVII asrda
C) faqat XVIII asrda
D) faqat XIX asrda

285.(7.j.-16) Londondagi birinchi yopiq bozor Blekuelxoll qachon qurib bitkazilgan?
A) 1203-yili
B) 1292-yili
C) 1397-yili
D) 1409-yili

286.(7.j.-16) Dastlabki banklar XIV-XV asrlarda qaysi davlatning yirik shaharlarida paydo bo'ldi?
A) Germaniyaning
B) Italiyaning
C) Fransiyaning
D) Angliyaning

287.(7.j.-16) Markazi Reyms shahri bo'lgan o'rta asr Yevropasining eng mashhur yarmarkasi bu…?
A) Sen-Jermen (Parij)
B) Milan (Italiya)
C) Sampan (Fransiya)
D) Venetsiya (Italiya)

288.(7.j.-16) 1203-yili qaysi shaharda g'alla bozori ishga tushgan?
A) Parij (Fransiya)da
B) Milan (Italiya)da
C) Tuluza (Fransiya)da
D) Florensiya(Italiya)da

289.(7.j.-16) Bank so'zi…?
A) nemis tilida banko - quticha, sarrof do'konidagi quticha nomidan olingan.
B) italyan tilida banko - kursi, sarrof do'konidagi o'rindiq nomidan olingan.
C) fransuz tilida banko – uy, joy, sarrof do'koni nomidan olingan.
D) ingliz tilida banko – pul solinadigan xalta nomidan olingan.

290.(7.j.-16) Qaysi yarmarkada spektakllar qo'yilgan?
A) Sen-Jermen (Parij)
B) Milan (Italiya)
C) Sampan (Fransiya)
D) Venetsiya (Italiya)

291.(7.j.-16) Qaysi yarmarkada ikki hafta davomida 100 ming kishi qatnashgan?
A) Sen-Jermen (Parij)
B) Milan (Italiya)

C) Sampan (Fransiya)
D) Venetsiya (Italiya)

292.(7.j.-16) Birja atamasi…?
A) nemis tilida (Bryugge) birja - quticha, savdogar do'konidagi quticha nomidan olingan.
B) Bryugge shahridagi "Burse" mehmonxonasi yaqinida savdogarlar to'planadigan joy nomidan olingan.
C) fransuz tilida (Bryugge) birja – uy, joy, savdogarning uyi nomidan olingan.
D) ingliz tilida (Bryugge) birja – pul solinadigan xalta nomidan olingan.

293.(7.j.-16) 1460-yilda qaysi shaharda birja tashkil etilgan?
A) Bryuggeda
B) Antverpenda
C) Lionda
D) Londodda

294.(7.j.-16) Bryuggeda qaysi yilda birja tashkil etiladi?
A) 1409 yili
B) 1460 yili
C) 1462 yili
D) 1490 yili

295.(7.j.-16) XI-XV asrlarda Yevropada hunarmandchihk va savdoning yuksalishi…?
A) savdo ittifoqi, bank va shaharlarni vujudga keltirdi
B) bank, birja va sexlarni vujudga keltirdi
C) bozor, bank va birjalarni vujudga keltirdi
D) bank, yarmarka va birjalarni vujudga keltirdi

296.(7.j.-17) Hindistonda o'rta asrlarning rivojlangan davriga qachon o’tilgan?
A) VIII asrning 2- yarmida
B) IX—X asrlarda
C) XI—XIII asrlarda
D) XII—XIV asrlarda

297.(7.j.-17) Xitoy, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududlari o'rta asrlarning rivojlangan davriga qachon o’tganlar?
A) VIII asrning 2- yarmida
B) IX—X asrlarda
C) XI—XIII asrlarda
D) XII—XIV asrlarda

298.(7.j.-17) Osiyo shaharlari nima sababdan Yevropa shaharlaridan farqliroq yirik zamindorlarga qarshi kurash olib bormaganlar?
A) Ishlab chiqarish sust bo’lganligidan
B) Imkoniyatlar etarli bo’lganidan
C) Davlat yerlarida vujudga kelganidan
D) Shahar etakchilarining yo’qligidan

299.(7.j.-17) 1018-yili Pratijar rojasinig poytaxti Kanuja shahri kim tomonidan talanib, vayron qilinadi?
A) Mahmud G'aznaviy
B) Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad
C) Ibrohim Lodi
D) Ismoil Samoniy

300.(7.j.-17) O'rta asr Yaponiyasining dengiz bo'yida vujudga kelgan shaharlarini toping?
A) Nara, Xeyyan
B) Otsu
C) Xyogo, Sakai
D) Nagoya

301.(7.j.-17) O'rta asr Yaponiyasining budda ibodatxonalari atrofida vujudga kelgan shaharlarini toping?
A) Nagoya
B) Nara, Xeyyan
C) Otsu
D) Xyogo, Sakai

302.(7.j.-17) O'rta asr Yaponiyasining aloqa bekati va yo'l ustida vujudga kelgan shaharlarini toping?
A) Nara, Xeyyan
B) Otsu
C) Xyogo, Sakai
D) Nagoya

303.(7.j.-17) 1177-yili yong'in natijasida vayron bo'lgan va qayta tiklanganidan so'ng Kioto nomini olib mamlakat poytaxtiga aylangan qadimiy shahar bu…?
A) Nara, Nagoya
B) Xeyyan
C) Otsu
D) Xyogo, Sakai

304.(7.j.-17) Xitoyda yog'och tanqis bo'lganidan binolar qurilishda…?
A) g'isht va toshdan keng foydalanilgan.
B) sement, sopol va toshdan keng foydalanilgan.
C) paxsa, sopol va g’ishtdan keng foydalanilgan.
D) g'isht, sopol va toshdan keng foydalanilgan.

305.(7.j.-17) Xitoyning yirik shaharlarida G'arbiy Yevropa shaharlaridan farqliroq…?
a) maishiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan
b) midofa devori bilan o’rab olingan
c) sopol quvurlar orqali toza suv bilan ta'minlangan
d) soqchilar qo’yilgan
e) axlat va chiqindilardan tozalangan
f) o't o'chirish ishlari yo'lga qo'yilgan

A) a, b, d, e, f
B) a, c, e, f
C) b, c, d, f
D) c, d, e, f

306.(7.j.-17) XVI asrda Pekin axolisi sonini ko’rsating?
A) 1 mln
B) 2 mln
C) 3 mln
D) 4 mln

307.(7.j.-17) O'rta asr shoir va faylasuflari qaerni "sayqali ro'yi zamin" — Yer yuzining sayqali, husni deb ta'riflagan?
A) Isfaxonni
B) Sherozni
C) Samarqandni
D) Buxoroni

308.(7.j.-17) Osiyoning musulmon davlatlari shaharlari umumiy reja bo'yicha qurilgan. Shahar atrofida rabod bo'lib, unda kimlar joylashgan?
A) shahar hokimi
B) hunarmandlar
C) kambagallar
D) asosiy aholi

309.(7.j.-17) Sharq shaharsozligida asosiy qurilish ashyolari…?
A) tosh va g'isht
B) sement va sopol
C) paxsa va sopol
D) paxsa va g’isht

310.(7.j.-17) Kitoblar uchun eng sifatli muqovalar qayerlik ko'nchi-ustalar tomonidan yasalgan?
A) Samarqand
B) Yaponiya
C) Damashq
D) Shimoliy Afrika

311.(7.j.-17) Arab xalifaligi, Yaponiya, Xitoyda usta va savdogarlardan soliqlarni davlatga kim yig'ib bergan?
A) usta va savdogarlar boshlig’i
B) shahar hokimi
C) sex oqsoqoli
D) usta va savdogarlarning o’zlari

312.(7.j.-17) Qaysi xalq 600—700 kishi va yana ko'plab yuk sig'adigan yirik kemalar — jonkalarni qurishgan?
A) Xorazmliklar
B) Korealiklar
C) Yaponlar
D) Xitoyliklar

313.(7.j.-17) Chet ellik savdogarlar Samarqand shahrini nimasini yuqori baholaganlar.
A) qog'ozi va gazlamalarini
B) kulolchilik buyumlarini
C) gazlama va kiyimlarini
D) qurol-aslahalarini

314.(7.j.-17) Qanday sabablar Afrika qit'asining xomashyo, tuz, oltin, fil suyagi, ziravorlar va qisman qullar manbayiga aylanishiga olib keldi?
A) Savdo-sotiqni rivojlanmaganligi, uzluksiz urushlar
B) doimiy urushlar va noqulay geografik sharoit
C) iqtisodiy qoloqlik va uzluksiz urushlar
D) madaniy qoloqlik va boy tabiiy xom ashyoni mavjudligi

315.(7.j.-17) Ilk o'rta asrda Bag'dodda, Ishbiliya (Sevilya) va G'arnota (Granada, Ispaniya)da qanday bozorlar mavlud bo'lgan?
A) G’alla bozorlari
B) Mardikor bozorlar
C) Xalqaro bozorlar
D) Kema va qayiq bozorlari

316.(7.j.-18) Franklar qiroli Xlodvig xristianlikni qachon qabul qilgan?
A) III asrda
B) IV asr oxirida
C) V asr oxirida
D) VII asrda

317.(7.j.-18) Qaysi hududlardagi monastirlaridan yetishib chiqqan rohiblar VI—VIII asrlarda Yevropaning eng chekka joylariga ham borib aholini xristianlikka o'tkazgan?
A) Angliya va Irlandiya monastirlaridan
B) Kiyev Rusi va Bolgariya monastirlaridan
C) Fransiya va Italiya monastirlaridan
D) Ispaniya va Germaniya monastirlaridan

318.(7.j.-18) Vengerlar IX asrda, polyaklar esa, …. asrda xristianlikka o'tganlar.
A) VII asrda
B) VIII asrda
C) X asrda
D) XII asrda

319.(7.j.-18) Kiyev Rusi va Bolgariya X asr oxirlarida xristianlikning pravoslav mazhabini qaysi davlatdan qabul qilgan?
A) Angliyadan
B) Bolgariyadan
C) Germaniyadan
D) Vizantiyadan

320.(7.j.-18) Yevropaning shimoliy-sharqida yashovchi eng oxirida cho'qintirilgan qabilalarni toping.
A) rus va mangol qabilalari
B) pruss va litva qabilalari
C) vesgot va vandal qabilalari
D) saks va angl qabilalari

321.(7.j.-18) Italiyada Rim papalari davlati - Papa viloyati qachon tashkil topgan?
A) 756-yili
B) 395-yili
C) 1054-yili
D) 476-yili

322.(7.j.-18) Qanday sabab 1054-yili xristian cherkovini rasman: g'arbiy katolik ("jahon") va Sharqiy pravoslav ("sof din", "chin e'tiqod") cherkovlariga bo'linishiga olib keldi?
A) Sharqiy Yevropada bolgarlarni cho'qintirishdagi raqobat
B) Mazhablar orasidagi tafovut
C) Cherkov boyliklarini taqsimlanishidagi norozilik
D) Rimda cherkov va'zlari lotinchada olib borilganligi

323.(7.j.-18) G'arbda cherkov va'zlari lotincha, Sharqda esa….?
A) slavyan tilida olib borilgan.
B) nemis tilida olib borilgan.
C) yunon tilida olib borilgan.
D) fors tilida olib borilgan.

324.(7.j.-18) Selebat bu…?
A) Katolik cherkovida uylanmaslik haqida ruhoniyiarga qo’yilgan taqiq
B) Pravoslav cherkovidagi muqaddas non
C) Katolik cherkovidagi sig’inish tarnibi va yo’l-yoriqlari
D) Pravoslav cherkovidagi muqaddas ikona

325.(7.j.-18) Yevropada V asrda boshlangan feodal munosabatlar natijasida…..?
A) Ibodatxona va monastirlar yersiz qoldi.
B) Ekinzorlarning uchdan biri ibodatxona va monastirlar qolida to'plandi.
C) Ekinzorlarning to’rdan biri ibodatxona va monastirlar qolida to'plandi.
D) Ekinzorlarning beshdan biri ibodatxona va monastirlar qolida to'plandi.

326.(7.j.-18) Interdikt bu…?
A) Cherkov tomonidan mamlakatda ibodat va marosimlarni vaqtinchalik taqiqlanishi
B) yunoncha – dahriylar
C) lotincha – qidiruv
D) portugalcha -e'tiqod, yoki din ishi

327. (7.j.-18) Xristian cherkovi aholidan qanday solig'ini undirgan?
A) xuroj (hosilni 2/10)
B) indulgensiya (hosilni 1/10)
C) cherkov haqqi (hosilni 3/10)
D) ushr (hosilni 1/10)

328.(7.j.-18) Cherkov ……… insonning nafaqat qilgan gunohlarini, balki qilishi mumkin bolgan gunohlarini ham kechirgan.
A) ushr (hosilni 1/10) solig’ini yig’ish orqali
B) indulgensiya (lotincha "afv") sotish orqali
C) gunohkorning qattiq tavba-tazarrusi evaziga
D) xuroj (hosilni 2/10) solig’ini yig’ish orqali

329.(7.j.-18) Cherkov qo'llagan jazoning eng og'iri bu….?
A) Interdikt
B) Inkvizitsiya
C) Indulgensiya
D) Autodafe

330.(7.j.-18) "Oy o'z yog'dusini Quyoshdan olganidek, qirol hokimiyati o'z jilosini papalikdan oladi" degan so'zlar qaysi papaga tegishli?
A) Urban II ga
B) Innokentiy III ga
C) Grigoriy IX ga
D) Innokentiv III ga

331.(7.j.-18) Yevropada dastlabki monastirlar nechanchi asrdan boshlab tashkil etilgan?
A) II asrdan
B) III asrdan
C) IV asrdan
D) V asrdan

332.(7.j.-18) Unday kishilar cherkovning boyliklari, hashamatli udum marosimlariga qarshi chiqib, sodda cherkov g'oyasi tarafdorlari bo'lishgan. Ular kimlar?
A) Papalar
B) Yeretiklar
C) Rohiblar
D) Saroy amaldorlari

333.(7.j.-18) Yeretiklarga qarshi kurashadigan cherkov sudi…?
A) Interdikt
B) Indulgensiya
C) Autodafe
D) Inkvizitsiya

334.(7.j.-18) Inkvizitsiya sudi o'zining qudrati cho'qqisiga qaysi papa davrida erishgan?

A) Urban II ga
B) Innokentiy III ga
C) Grigoriy IX ga
D) Innokentiv III ga

335.(7.j.-18) Inkvizitsiya sudida mahkum etilganlarni gulxanda yondirish nima deb nomlangan?
A) Interdikt
B) Inkvizitsiya
C) Indulgensiya
D) Autodafe

336.(7.j.-19) Salib yurishlari qaysi yillar oralig'ida bo'lib o'tgan?
A) 1060— 1180-yillar
B) 1096— 1270-yillar
C) 1120— 1240-yillar
D) 1270— 1390-yillar

337.(7.j.-19) Tarixda katolik cherkovi tomonidan salib yurishlari necha marta tashkil qilingan?
A) O’n ikki marta
B) O’n marta
C) Sakkiz marta
D) Olti marta

338.(7.j.-19) Cherkov va feodallar uchun salb urushlarga bahona bu…?
A) Quddusdagi Iso payg'ambar qabrini musulmonlardan xalos etish
B) Saljuqiylarning Kichik Osiyoni bosib olishi va Vizantiyaga xavf solishi
C) Falastinda "sut va asal daryo bo'lib oqishi, Quddus yerning kindigi-jannatmakon hosildor yerli o'lka" ekanligini
D) XI asr oxirida boshlangan musulmon hukmdorlarining o'zaro urushlari xristianlar ziyoratlarini tobora xavfli tadbirga aylantirishi

339.(7.j.-19) Qaysi Papa 1095-yili Fransiyaning janubidagi Klermon shahrida cherkov yig'ini soborga to'plangan minglab ruhoniylar, ritsarlar va oddiy xalq vakillari huzurida nutq so'zlaydi?
A) Innokentiy III
B) Grigoriy IX
C) Innokentiv III
D) Urban II

340.(7.j.-19) Katolik cherkovi salb yurishi ishtirokchilariga ayrim yengiliklar yaratadi, ular…?
a) dehqonlar qarzlaridan kechilishi
b) ritserlarni yangi qurol-yaroq bilan ta’minlanishi
c) dehqonlarning oilalari cherkov himoyasiga o'tishi
d) feodallarga bosib olingan yerlardan katta yer-mulklarni berilishi
A) a, d, c
B) b, c
C) a, c
D) a, c, d

341.(7.j.-19) Meros bo’linishining mayorat tizimi bo’yicha…?
A) meros barchaga baravar taqsimlangan
B) meros kichik farzandga qoldirilgan
C) meros qirollikka qoldirilgan
D) meros katta o'g'ilga qoldirilgan

342.(7.j.-20) Birinchi salib yurishini kimlar tashkil qilishgan?
A) rohib Pyotr Amenskiy va imperator Aleksey I
B) papa Urban II va ritsar Valter Golyaklar
C) rohib Pyotr Amenskiy va ritsar Valter Golyaklar
D) Fransiya qiroli Lyudovik VII va ritsar Valter Golyaklar

343.(7.j.-20) Shaharliklar uyiga bostirib kirgan ritsar, eshikka qalqonni osib qo'yar buning ma’nosi…?
A) mana shu uyning barcha oila a’zolari yangi xo'jayinga qul bo’lganligini anglatar edi.
B) uy barcha jilhozlari bilan yangi xo'jayinga o'tganligini anglatar edi.
C) uy barcha jilhozlari bilan salbchilar jamoasiga o'tganligini anglatar edi.
D) bu uy bemalol talanishi mumkinligini anglatar edi.

344.(7.j.-20) Birinchi salib yurishlari ……. yillarda bo'lib, u Edessa va Tripoli grafliklari, Antioxiya knyazligi va Quddus qirolligini tuzilishi bilan yakunlanadi.
A) 1097— 1240-yillar
B) 1070— 1090-yillar
C) 1060— 1180-yillar
D) 1096— 1099-yillar

345.(7.j.-20) Salibchilar tuzgan davlatlarning eng yirigi qaysi qirollik bo'lgan?
A) Edessa qirolligi
B) Tripoli grafligi
C) Quddus qirolligi
D) Antioxiya qirolligi

346.(7.j.-20) Qaysi orden a'zolari harbiy jasoratlari, ishbilarmonligi hamda in'omlar olishi va sudxo'rlik qilishi bilan boshqa ordenlardan ajralib turgan?
A) gospitalyerlar ordeni
B) ioanniylar ordeni

C) Nemis (lotincha Tevton) ordeni
D) tampliyerlar ordeni

347.(7.j.-20) Qaysi orden dastlabki diniy-ritsarlik ordeni bo'lgan?
A) gospitalyerlar ordeni
B) ioanniylar ordeni
C) tampliyerlar ordeni
D) A va B

348.(7.j.-20) XIII asrning boshida venger zodagonlar tomonidan qipchoqlar bilan kurashga jalb qilingan orden bu…?
A) gospitalyerlar ordeni
B) ioanniylar ordeni
C) tampliyerlar ordeni
D) Nemis (lotincha Tevton) ordeni

349.(7.j.-20) Quddusga kelayotgan ziyoratchilarni himoya qilish uchun tuzilgan ikkinchi ritsarlik ordeni bu…?
A) gospitalyerlar ordeni
B) ioanniylar ordeni
C) tampliyerlar ordeni
D) Nemis (lotincha Tevton) ordeni

350.(7.j.-20)Muqaddas Bibi Maryamga bag'ishlangan uchinchi yirik diniy-ritsarlik ordenining nomi?
A) gospitalyerlar ordeni
B) ioanniylar ordeni
C) tampliyerlar ordeni
D) Nemis (lotincha Tevton) ordeni

351.(7.j.-20)Muqaddas Bibi Maryamga bag'ishlangan uchinchi yirik diniy-ritsarlik ordenining nomi nima uchun Nemis (lotincha Tevton) ordeni deya atalgan?
A) Undagi ko'pchilik ritsarlar Germaniyadan bo'lgani uchun
B) Orden Germaniyada tuzilganligi uchun
C) Ordenga Germaniya qirollari homiylik qilgani uchun
D) Rim papasi Germaniyani qo'llab-quvatlagani uchun

352.(7.j.-20)Ikkinchi salib yurishi qaysi yillarda bo'lib o'tgan?
A) 1197— 1240-yillar
B) 1170— 1190-yillar
C) 1160— 1180-yillar
D) 1147-1149-yillari

353.(7.j.-20) Ikkinchi salib yurishida qaysi qirol o'z qo'shini bilan ishtirok etgan?
A) German imperatori Fridrix I Barbarossa
B) Fransiya qiroli Filipp II Avgust
C) Fransiya qiroli Lyudovik VII
D) Angliya qiroli Richard I Sheryurak

354.(7.j.-20) Misr sultoni Salohiddin Ayubiy qaysi yili jihod eion qilib, salibchilardan Quddusni tortib oladi?
A) 1147-yili
B) 1187-yili
C) 1192-yili
D) 1189-yili

355.(7.j.-20) Uchinchi salib yurishi qaysi yillarda bo'lib o'tgan?
A) 1197 - 1240-yillar
B) 1096 - 1099-yillar
C) 1147 - 1149-yillari
D) 1189 - 1192-yillari

356.(7.j.-21) To'rtinchi salib yurishlari qaysi yillarda bo'lib o'tgan?
A) 1202-1204-yillar
B) 1209 - 1219-yillar
C) 1147 - 1149-yillari
D) 1189 - 1192-yillari

357.(7.j.-21)To'rtinchi salib yurishida salbchilar qaysi bahona bilan Vizantiyaga qarshi urush boshladi?
A) ukasi tomonidan taxtdan tushirilib ko'ziga mil tortilgan Isaak II Angelga toju taxtni qaytarish bahonasida
B) Venetsiya bilan kelishilgan pulning deyarlik 1/3 qismini to'lay olmagan salibchilar uning savdodagi asosiy raqibi Vizantiyaga qarshi urush boshlashga majbur bo'ladi
C) Vizantiya salbchilarni qo'llab quvvatlamay qo'ygani bahonasida
D) Vizantiya imperatori eretik bo'ganligi uchun

358.(7.j.-21)Salibchilar qo'shini qaysi sanada Konstantinopolga hujum boshlaydi?
A) 1106-yilning 18—22-martida
B) 1204-yilning 9—13-aprelida
C) 1202-yilning 12—19-dekabrida
D) 1216-yilning 6—11-mayida

359.(7.j.-21)1204—1261-yillarda Konstantin shahrida hukmronlik qilgan salbchilar davlati tarixda nima uchun Lotin imperiyasi deya atalgan?
A) Salbchi ritsarlarni ko'pchiligi lotinlardan bo'lgani uchun
B) Rim papasining xoxish shunday bo'lganligi uchun
C) Vizantiyaliklar salibchilarni lotinlar deb nomlaganligi uchun
D) Urushga lotin xalqlari homiylik qilgani uchun

360.(7.j.-21)Lotin imperiyasi - Romaniyaning birinchi imperatori bu…?
A) Mixail VIII Paleolog
B) Fransiya qiroli Lyudovik IX
C) Isaak II Angel
D) Flandriya grafi Bolduin

361.(7.j.-21)Konstantinopoldan salbchi – lotinlarni qaysi xalqlar quvib yuborgan?
A) Konstantinopol yunonlari
B) Saljuqiy turklar
C) Nikeyaliklar
D) Misr xalqi

362.(7.j.-21)Nikeya imperatori, Vizantiya vasilevslari so'nggi sulolasi asoschisi Mixail VIII Paleolog qachon Konstantinopolga tantanali kirib kelib, Vizantiya imperiyasi qayta tiklanadi?
A) 1261-yilning 15-avgustida
B) 1266-yilning 12-martida
C) 1204-yilning 9-aprelida
D) 1252-yilning 19-dekabrida

363.(7.j.-21)Sakkizinchi salib yurishlari qaysi yillarda bo'lib o’tgan?
A) 1202-1204-yillar
B) 1249 - 1259-yillar
C) 1269— 1270-yillari
D) 1289 - 1292-yillari

364.(7.j.-21)Sakkizinchi salib yurishlarini qaysi qirol tashkillashtirgan?
A) Vizantiya imperatori Mixail VIII Paleolog
B) Fransiya qiroli Lyudovik IX
C) Vizantiya imperatori Isaak II Angel
D) Flandriya grafi Bolduin

365.(7.j.-21)XIII asrning oxirida salib yurishlari yakun topishining asosiy sabablarini ko’rsating.
a) Ishlab chiqarish kuchlarini o'sishi
b) salib yurishlarida ko’pchilikni qirilib ketishi
c) O'rmonlar kesilib ekinzorlarga aylantirilishi
d) yersiz qishloq aholisini shaharlarga ketishi
e) salib yurishlari natijasida Yevropa xalqini katta boylikka ega bo’lib qolishi
f) Qirol hokimiyatining kuchayishi bilan ritsarlarga qirol qo'shinida xizmat qilish imkonini yaralishi
A) a, d, e, f
B) b, c, d, e
C) a, c, d, f
D) b, d, e, f

366.(7.j.-21)Salib yurishlari natijasida XII—XIII asrlarda Yevropa aholisi qanday dehqonchilik ekinlari yetishtirishni o’rganib oldilar?
A) sholi, grechixa, tarvuz, o'rik va limon
B) Tarvuz, limon, o’rik va shakarqamish
C) Ananas,limon, shakarqamish
D) Loviya, tarvuz, o’rik va shakarqamish

367.(7.j.-21)Yevropada shamol tegirmonlari qachondan qurila boshladi?
A) X asrdan
B) XI asrdan
C) XII asrdan
D) XIII asrdan

368.(7.j.-21)G'arbga Sharqdan qanday nafis gazlamalar keltirilgan?
A) Movut, atlas, Xitoy shoyisi
B) Muslin, atlas, Damashq shoyisi
C) Atlas, Samarqand shoyisi
D) Buhoro zandanasi, Marg’ilon atlasi

369.(7.j.-21)XII asrdan boshlab yevropaliklar ham aloqa kaptarlari yordamida xat tashishni qo'llay boshlaydi. Ular buni qaysi xalqdan o’rganganlar?
A) Saljuqiy turklardan
B) Misrliklardan
C) Arablardan
D) Eronliklardan

370.(7.j.-22) Fransiyada mojaro bitta senorning vassallari orasida bo'lsa uni qaysi sud ko'rib chiqqan?
A) Toifa sudi
B) Qirol sudi
C) Hakamlar sudi
D) Okurug sudi

371.(7.j.-22) Salibchilar Suriya cho'lida musulmonlar bilan jang qilayotganida Fransiya…?
A) Gullab yashnayotgan edi.
B) Og'ir davrlarni boshdan kechirayotgan edi.
C) Angliya tomonidan bosib olingan edi.
D) Papa tomonidan cherkovdan chetlatilgan edi.

372.(7.j.-22) Fransiyaning qaysi hududi shu qadar mustaqil ediki, u yerda hatto qirol haqida eshitishni ham istashmagan?
A) Shimoliy hududi
B) Garbiy hududi
C) Janubiy hududi
D) Sharqiy hududi

373.(7.j.-22) Fransiyada qaysi gersoglarining har biri qirolga nisbatan ko'proq hudud va aholiga ega edi?
A) Normandiya, Burgundiya, Bretan, Akvitaniya
B) Anju, Bretan,Tuluza, Blua
C) Parij, Burj, Burgundiya, Sans
D) Shampan, Burgundiya, Akvitaniya

374.(7.j.-22) Qirol, gersog, graf va baronlarning qaram dehqonlar mehnati bilan ishlanadigan yer-mulklarining nomi…?
A) Dvoryan
B) General shtat
C) Domen
D) Erl

375.(7.j.-22) Qirol Lyudovik VI (1108-1137) kimning yordamida o'z domenida tartib o'rnatishga harakat boshlaydi?
A) 17 yoshli o'g'li Lyudovik VII yordamida
B) Sen-Deni monastiri abbati Sugeriy yordamida
C) Akvitaniya gersogining merosxo'ri 15 yoshli Aleonora yordamida
D) Burj va Sans shaharlari gersoglari yordamida

376.(7.j.-22) Qachon Fransiyada yangi o'zlashtirilgan yerlarda dehqonlar qaliramligi bekor qilinib, soliqlarning bir qismini pul bilan to'lanadigan bo'ladi?
A) X asrdan
B) XI asrdan
C) XII asrdan
D) XIII asrdan

377.(7.j.-22) XII—XIII asrlarda Fransiya feodallarinng o'z yerlariga bo'lgan munosabati qanday bo'lgan?
A) Ular o'z yerlarini ommaviy tarzda sota boshlaganlar
B) Ular o'z yerlarini dehqonlarga merosiy ijaraga bera boshlaganlar
C) Ular o'z yerlarini qirol uchun majburan topshirganlar
D) Ular o'z yerlarini dehqonlar foydasiga bo'lib bera boshlaganlar

378.(7.j.-22) Fransiyada viloyatlar orasida mehnat taqsimoti kuchaya brogan. U yerda temir, tuz ishlab chiqarish, ot va qoramol yetishtirishga qaysi viloyat ixtisoslashgan?
A) Shampan
B) Burgundiya
C) Normandiya
D) Parij

379.(7.j.-22) Shampan va Burgundiya viloyatlari qaysi sohaga ixtisoslashgan?
A) vinochilik, zig'ir tolasi va jundan gazlamalar to'qishga
B) temir, tuz ishlab chiqarishga
C) ot va qoramol yetishtirishga
D) shisha mahsulotlarini ishlab chiqarishga

380.(7.j.-22) Fransiyada qaysi tabaqa feodallar o'zboshimchaligini cheklaydigan kuchli qirol hokimiyatining tarafdori edi?
A) Ruhoniylar
B) Dehqonlar
C) Hunarmandlar
D) Shaharliklar

381.(7.j.-22) Fransiyani markazlashitirish jarayoniga qaysi tabaqa vakillari qarshi bo'lgan?
A) Yirik diniy va dunyoviy feodallar
B) Ruhoniylar va savdogarlar
C) Dehqonlar va hunarmandlar
D) Shaharliklar va mayda mulkdorlar

382.(7.j.-22) Fransiyada qirol hokimiyatining kuchayishi XII asrda ………ning o'z mulklaridagi vassallarini itoat ettirishidan boshlanadi.
A) Lyudovik VI
B) Lyudovik VII
C) Lyudovik IX
D) Filipp II

383.(7.j.-22) Filipp II (1180-1223) "Ingliz tojining marvaridi" hisoblangan qaysi hududni 1202-1214-yillada Angliyadan tortib oladi?
A) Tuluza grafligini
B) Shotlandiyani
C) Normandiyani
D) Londonni

384.(7.j.-22) Kimning davrida zarb ettirilgan oltin va kumush tangalar Fransiyaning barcha viloyatlarida o'tishi huquqi belgilanadi?
A) Lyudovik VI
B) Lyudovik VII
C) Lyudovik IX
D) Filipp II

385.(7.j.-23) Qaysi qirol Fransiyani markazlashtirish vaqtida Shampan grafligi, Lion viloyati va shahrini qirol domeniga qo'shib oladi?
A) Lyudovik VI
B) Filipp IV
C) Lyudovik IX
D) Filipp II

386. (7.j.-23)Filipp IV Yevropa hukmdorlaridan birinchi bo'lib, qanday ishni amalga oshirdi?
A) Cherkovga qarshi urush e'lon qildi
B) Cherkov yerlarini tortib oldi
C) Cherkovdan soliq talab qildi
D) O'zini Papa deb e'lon qildi

387.(7.j.-23)Anafema bu…?
A) Cherkov la'nati
B) Cherkovga to'lanadigan soliq

C) Cherkov e'loni
D) Gherkov sudi

388.(7.j.-23)Qaysi chorasiz papa Filipp IV ga "mana mening boynim, mana mening boshim.' — degan?
A) Innokentiy III
B) Grigoriy IX
C) Bonifatsiy VIII
D) Urban II

389.(7.j.-23)General shtatlar so’zining ma’nosi?
A) Ittifoqchi generallar
B) Hudud generallari
C) General toifalar
D) Yalpi toifalar

390.(7.j.-23)Fransiyada General shtatlar qaysi yillarda faoliyat yuritgan?
A) 1202-1689 yillarda
B) 1302-1789 yillarda
C) 1402-1889 yillarda
D) 1502-1689 yillarda

391.(7.j.-23)Tarixda "papalarning Avinon tutquni” nomini olgan yillarni ko’rsating.
A) 1202-1689 yillar
B) 1302-1789 yillar
C) 1402-1889 yillar
D) 1309-1377 yillar

392.(7.j.-23)Filipp IV qaysi ordenini dahriylikka yoliqib gunohlarga botganligiga "ishongan"?
A) gospitalyerlar ordeni
B) ioanniylar ordeni
C) tampliyerlar ordeni
D) nemis (lotincha Tevton) ordeni

393.(7.j.-23)Tampliyerlarning buyuk magistri 1314-yili o'limga mahkum etilgandan song qancha oy o’tib papa va Filipp IV vafot etadilar?
A) uch oy o'tib papa, sakkiz oydan so'ng Filipp IV vafot etgan
B) bir oy o'tib papa, o'n oydan so'ng Filipp IV vafot etgan
C) ikki oy o'tib papa, uch oydan so'ng Filipp IV vafot etgan
D) besh oy o'tib papa, olti oydan so'ng Filipp IV vafot etgan

394.(7.j.-23)General shtatlar dastlab qaysi ish bilan bog'liq muammolarni yechgan xolos?
A) Soliqlar muammosi
B) Tashqi siyosat muammosi
C) Qaroqchilar muammosi
D) Yer muammosi

395.(7.j.-24) Angliya va Fransiya o'rtasida XIV asrning 30-yillari boshlangan urushlar (1337—1453) tarixda qanday nom olgan?
A) "qizil gullar urushi"
B) "oq gullar urushi"
C) "yuz yillik urush"
D) "ma’nosiz urush"

396.(7.j.-24) Filipp IV ning o'limidan ko'p o'tmay taxtga da'vogar erkak zurriyot qolmagach, Kapetinglar vorisi deb kim tan olinadi?
A) Filipp IV ning qizidan nabirasi ingliz qiroli Eduard III
B) Valualar oilasi
C) Ioaan Sahiy
D) Ioaan Sahiyning o'g'li Filipp

397.(7.j.-24) Nima uchun Filipp IV ning (qizidan) nabirasi bo’lgan ingliz qiroli Eduard IIIga Fransiya taxti berilmaydi?
A) Filipp IV ning (qizidan) nabirasi bo’lgan Eduard III ingliz qiroli bo’lgani uchun
B) Fransiya ichida Valualar oilasi Kapetinglarning qonuniy vorisi deb e’lon qilinganligi uchun
C) Fransiya xalqi Valualar oilasini qattiq hurmat qilgani uchun
D) Xlodvig davridagi "Sali haqiqati" ga binoan yer meros bo'yicha ayol kishiga o'tishi mumkin emasligi uchun

398.(7.j.-24) Fransiya qiroli 1337-yili inglizlar mamlakatning janubi-g'arbidagi Akvitaniya yerlarini o'z e'tirofiga olganini e'lon qiladi. Bunga javoban Eduard III…?
A) O’zini Fransiya qiroli deb e’lon qiladi.
B) Fransiyaga tinchlik elchilsrini yuboradi.
C) Fransiya qirolligidan voz kechadi.
D) Fransiyaga qarshi urush boshlaydi.

399.(7.j.-24) Yuz yillik urush boshlanishida qaysi davlatlar Fransiyani qo'llaydi?
A) Portugaliya va Italiya
B) Shotlandiya va Kastiliya
C) Germaniya
D) Ispaniya va Irlandiya

400.(7.j.-24) Yuz yillik urush boshlanishida qaysi davlat Anglyani qo'llaydi?
A) Shotlandiya
B) Germaniya
C) Ispaniya
D) Portugaliya

401.(7.j.-24) Fransiyaliklar qo'shini mag'lubiyatga uchragan Yuz yillik urushning dastlabki yirik jangi qachon va qaerda bo'lib o’tadi?
A) 1342-yili Kale porti yaqinida

B) 1337-yili Akvitaniyada
C) 1346-yili Kresi yaqinida
D) 1356-yili Puate yaqinida

402.(7.j.-24) 1346-yili Kresi yaqinidagi jangda Angliya g'alabasini ta’minlagan omillaridan biri….?
A) Ingliz qo'shinlarining intizomi va unda ritserlarning son jihatidan ko’pligi
B) Ingliz qo'shinlarining urushdagi shiddatli xarakati
C) Ingliz qo'shinlarida erkin dehqonlardan tuzilgan kamonchilar bo'linmasining borligi
D) Qiroldan maosh olgan holda inglizlar qo'shini boshqaradigan harbiy boshliqlarni borligi

403.(7.j.-24) 1356-yili Fransiyaning son jihatidan ikki baravar katta qo'shini shahzoda Eduard bo'linmasini ta'qib etib, unga Puate yaqinida yetib oladi. Bu jangda shahzoda Eduard asirga olinishi o’rniga kimlar asirga tushib qoladilar?
A) Fransiya qiroli Ioaan Sahiy
B) Fransiya qirolining Filipp
C) Gilom Kal
D) Fransiya qiroli Ioaan Sahiy va o'g'li Filipp

404.(7.j.-24) Fransiyada XIV asrda oddiy dehqonga nisbatan qanday laqab ishlatilgan?
A) Sodda Jak
B) Jak
C) Jakeriya
D) Keng elkali Jak

405.(7.j.-24) Fransiyaning Bove okrugida boshlanib, tarixda "Jakeriya" nomini olgan qo’zg’alon qachon bo’lib o’tgan?
A) 1352-yil
B) 1356-yil
C) 1358-yil
D) 1360-yil

406.(7.j.-24) "Jakeriya" qo’zg’alonida qancha kishi qatnashgan?
A) Ikki yuz ming kishi
B) Yuz mingga yaqin kishi
C) Uch yuz mingga yaqin kishi
D) Besh yuz ming kishi

407.(7.j.-24) "Jakeriya" qo’zg’alonchilarning shiori bu…?
A) barcha zodagonlami bitta ham qoldirmay qirib tashlash
B) dehqonlarga ozodlik
C) zulumsiz erkin hayot
D) boylik, yer va mansab taqsimotida tenglik

408.(7.j.-24) Jakeriya qo'zg'olonchilar bayroqlariga qanday tasvir tushirilgan?
A) Qirolning tasviri
B) Xoch tasviri
C) Qirol gerbidagi oq nilufar gul tasviri
D) Qirollik gerbi tasviri

409.(7.j.-24) 1358-yilda Fransiyada bo’lib o’tgan Jakeriya qo'zg'oloni boshlig’i…?
A) Dyugeklan
B) Gilom Kal
C) Janna d'Ark
D) ingliz qiroli Eduard III

410.(7.j.-25) Angliya Fransiyaga 1360-yil taklif etgan tinchlik sulhi bo'yicha…?
A) Normandiya hududi inglizlarga o'tadi.
B) Kale porti va Fransiyaning 2/3 qismi inglizlarga o'tadi.
C) Fransiya hududlarining 1/3 qismi inglizlarga o'tadi.
D) Angliya hududlarining 1/3 qismi fransuzlarga o'tadi.

411.(7.j.-25)Fransiya qiroli Karl V harbiy islohotlar o'tkazib yagona qo'mondonlikni joriy etadi va unga kimni tayinlaydi?
A) Gilom Kalni
B) Janna d'Arkni
C) Fransiya qiroli Karl VI ning o’zi yagona qo'mondon etib tayinlanadi
D) Dyugeklanni

412.(7.j.-25)Fransiya qiroli saroyidagi kelishmovchiliklardan foydalangan inglizlar 1415-yilning kuzida Normandiyaga qo'shin tushiradi. Va qaysi jangda fransuzlar qo'shini tor-mor etadi?
A) Azenkur jangida
B) Orlean jangida
C) Kale porti yaqinidagi jangda
D) Puate yaqinidagi jangida

413.(7.j.-25)Yuz yillik urish davrida qaysi gersog ko'magida inglizlar Parijni egallaganlar?
A) Orlean gersogi
B) Burgundiya gersogi
C) Bretan gersogi
D) Anju gersogi

414.(7.j.-25)Dofin bu…?
A) Mamlakat hukmdori
B) Oddiy xalq vakili
C) Oq suyak amaldor
D) Shahzoda, taxt vorisi

415.(7.j.-25)Yuz yillik urishda Fransiya va Karl IV ning o’g’li dofin Karl uchun muhim bo'lgan mamlakat janubidagi shahar….?
A) Kale port shahri
B) Orlean shahri
C) Akvitaniya shahri
D) Parij shahri

416.(7.j.-25)Yuz yillik urishda Orlean shahrini ozod qilish uchun jangga kirgan Janna d'Ark anashu vaqtda necha yoshda edi?
A) 18 yoshda
B) 19 yoshda
C) 16 yoshda
D) 17 yoshda

417.(7.j.-25)1430-yili Kompen qal'asi uchun janglarda Janna d'Ark kimlar tomonidan asirga olinib, inglizlarga topshiriladi?
A) fransuzlar
B) burgundlar
C) ispanlar
D) portugallar

418.(7.j.-25)1431-yilning 30-mayida Ruan shahrida Cherkov sudi Janna d'Arkka qanday jazo beradi?
A) eretik sifatida cherkovdan chiqariladi
B) fransiyaning sotqini sifatida mamlakatdan xaydab yuboriladi
C) xalq dushmani sifatida o'limga hukm etiladi
D) o'limga hukm etib, gulxanda yondiradi

419.(7.j.-25)Yuz yillik urish so’ngida 1453-yilda tuzilgan sulhga ko’ra inglizlar ixtiyorida faqat qaysi hudud qoladi?
A) Ruan shahri
B) Kale porti
C) Akvitaniya
D) Normandiya

420.(7.j.-25)Fransiyada 1451-yili urush bo'lgan hududlardagi dehqonlar qancha muddatga soliqlardan ozod qilinadi?
A) 8 yilga
B) 9 yilga
C) 10 yilga
D) 12yilga

421.(7.j.-25)Karl VII o'g'li Lyudovik XI (1461 — 1483) o'z siyosatini qaysi gersoglarini bo'ysundirishdan boshlagan?
A) Parij va Provans viloyatlarini
B) Lotaringiya gersogini
C) Bretan va Anju gersoglarini
D) Akvitaniya va Normandiya gersoglarini

422.(7.j.-25)Fransiyada Lyudovik XI (1461 — 1483) siyosatiga qarshi 1465-yili yirik feodallar tomonigan “Jamiyat baxt-saodati ittifoqi” tuziladi. Uning rahbari….?
A) Bretan gersogining qizi Anna
B) Karl Burgundskiy
C) Lyudovikning vorisi Karl VIII
D) Angilya qiroli Genrix VI

423.(7.j.-25)Fransiyaning markazlashuvi qaysi voqeadan keyin yakunlanadi?
A) 1477-yilli shveysariyaliklar bilan jangda Karl Jasur halok bo'lishi bilan.
B) 1481-yili Fransiyaning janubidagi Provans viloyati Marsel porti bilan Fransiya qiroli hukmiga o'tishi bilan.
C) 1491-yili Lyudovikning vorisi Karl VIII Bretan gersogining qizi Annaga uylanishi bilan.
D) 1465-yili Fransiyada yirik feodallar tomonigan “Jamiyat baxt-saodati ittifoqi” tuzilishi bilan.

424.(7.j.-26) Daniyaliklarning talonchilarga qarshi angl-sakslar XI asrning 40-yillarida qo'zg'olon ko'targanida, ularga kim yordamga keladi?
A) Fransiyaning shimolidagi Normandiya gersogi
B) Bretan gersogining qizi Anna
C) Angliya qiroli Garold va uning qo'shini
D) Angliya xalqining sevimli qahramoni Robin Gud

425.(7.j.-26) 1066-yili qaysi jangda Normandiya gersogi Vilgelm Angliya qiroli Garoldni nag’lub etadi?
A) London jangida
B) Tauer jangida
C) Gastings jangida
D) Azenkur jangida

426.(7.j.-26) Vilgelm I davrida Angliya yerlarining qancha qismi, qirol mulkiga aylantirilgan?
A) 1/5 qismi
B) 1/6 qismi
C) 1/7 qismi
D) 1/10 qismi

427.(7.j.-26) O'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida normandlar Angliya bo'ylab ko'plab qal'alar qurdirgan. Uiardan eng mashhuri…?
A) Londondagi Gastings qal'asi
B) Londondagi Tauer qal'asi
C) Londondagi Azenkur qal'asi
D) Londondagi Vilgelm qal'asi

428.(7.j.-26) Vilgelm I Angliya va Yevropada ilk marotaba yer-mulk va aholi ro'yxatini o'tkazdi. Bu

ro'yxat Angliya xalqi orasida ……….. nomini oldi.
A) "O’lim kitobi"
B) "Beqiyos boyliklar ro’yxati"
C) "Tarixiy ro’yxat"
D) "Dahshatli sud kitobi"

429.(7.j.-26) Angliya mamlakati grafliklarga bo'linib ularning har biriga qirol vakili ……. tayinlangan.
A) Erl
B) Sheriff
C) Baron
D) Graf

430.(7.j.-26) XIV asrda Ingliz xalq og'zaki ijodida boylarning dushmani, ezilgan mehnatkash xalqning himoyachisi sifatida kim tasvirlanadi?
A) Qirol Richard
B) Qirol Artur
C) Robin Gud
D) Lonselot

431.(7.j.-26) Kimning qirolligida Angliyada moliya va harbiy islohotlar o'tkazildi?
A) Vilgelem I davrida
B) Genrix II (1154—1189) davrida
C) Ioann (1199-1216) davrida
D) Richard II (1377-1399) davrida

432.(7.j.-26) Angliyada Baronlar harbiy xizmat o'rniga davlat xazinasiga qanday soliq to'laganlar?
A) “temir puli”
B) “askar puli”
C) “xizmat puli”
D) “qalqon puli”

433.(7.j.-26) Angliya qirollari XII asr davomida xalqqa qanday murojaat qilganlar?
A) “normanlar va inglizlar” deb.
B) “fransuzlar va angl-sakslar” deb.
C) “daniyaliklar va inglizlar” deb.
D) “fransuzlar va inglizlar” deb.

434.(7.j.-26) Baronlar, ritsarlar va shaharliklar ko'magida 1215-yilning bahorida ko'tarilgan isyondan keyin qirol Ioann "Buyuk ozodlik xartiyasi" nomini olgan hujjatni imzolashga majbur bo'ladi. Uning asosiy moddalarida kimlarning manfaatini ifodalagan edi?
A) shaharliklar va dehqonlarni
B) ritsarlar va ruhoniylarni
C) baronlar va ruhoniylarni
D) hunarmandlar va shaharliklarni

435.(7.j.-26) "Buyuk ozodlik xartiyasi" necha moddadan iborat edi?
A) 52 moddadan
B) 55 moddadan
C) 60 moddadan
D) 63 moddadan

436.(7.j.-26) Angliyada birinchi parlament qaysi yili chaqirilgan?
A) 1215-yili
B) 1265-yili
C) 1280-yili
D) 1320-yili

437.(7.j.-26) Angliya parlamenti XIV asrda qanday palatalarga bo'lingan?
A) lordlar va umumpalataga
B) ruhoniylar va lordlar palatasiga
C) baronlar va umumpalataga
D) lordlar va ritsarlar palatasiga

438.(7.j.-26) Parlament so’zi…?
A) ingliz tilidan parle - “so’zlamoq” so'zidan olingan.
B) fransuz tilidan parlament - “fikr” so'zidan olingan.
C) ingliz tilidan parze – “muammo” so'zidan olingan.
D) fransuz tilidan parle — “gapirmoq” so'zidan olingan.

439.(7.j.-26) Angliya parlamentining Umumpalata a’zolarini toping.
A) ruhoniylar, lordlar, baronlar
B) ritsarlar va shaharliklar
C) zodagonlar, yepiskoplar, abbatlar
D) shaharliklar, dehqonlar, ritsarlar

440.(7.j.-26) Angliya parlamenti qaysi asrdan boshlab soliqlar tayinlashdan tashqari, qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishda qatnashish huquqiga ham erishadi?
A) XIII asrdan
B) XIV asrdan
C) XV asrdan
D) XVI asrdan

441.(7.j.-26) Angliya parlamentining Lordlar palatasi a’zolarini toping.
A) ruhoniylar, lordlar, baronlar
B) ritsarlar va shaharliklar
C) zodagonlar, yepiskoplar, abbatlar
D) shaharliklar, dehqonlar, ritsarlar

442.(7.j.-27) 1377-yili Angliya Qirol Richard II (1377-1399) tomonidan qanday soliq joriy etildi.
A) Xarbiy xizmat solig'i
B) Jon solig'i
C) Yer solig'i

D) Chegara solig'i

443.(7.j.-27) XIV asrda Angliyada kimlardan xalq voizlari yetishib chiqqan?
A) Dehqon va hunarmandlardan
B) Xarbiy jangchilardan
C) Shahar axolisidan
D) Kambag'al ruhoniylar va rohiblardan

444.(7.j.-27) Kimning "Odam Ato yer haydab, Momo Havo charx yigirganda kim dvoryan bo'lgan!" degan kinoyali so'zlari Angliya qishloqlarida tez-tez takrorlanib turgan?
A) Uot Taylerni
B) Genrix VII Tyudorni
C) Jon Bollni
D) Richard II ni

445.(7.j.-27) Kimning buyrug'i bilan Jon Boll qamoqqa olinadi?
A) Genrix VII Tyudorni
B) Kenterberi arxiyepiskopini
C) Uot Taylerni
D) Richard II ni

446.(7.j.-27) Uot Tayler qo'zg'oloni qachon boshlangan?
A) 377-yilning yanvar oyida
B) 380-yilning iyun oyida
C) 361-yilning oktyabr oyida
D) 381-yilning may oyida

447.(7.j.-27) Uot Tayler qanday kasb egasi bo’lgan?
A) temirchi
B) to’quvchi
C) tunukasoz
D) duradgor

448.(7.j.-27) Uot Tayler qo'zg'olonida birinchilardan bo'lib kim o'ldirilgan?
A) Genrix VII Tyudor
B) Kenterberi arxiyepiskopi
C) Uot Taylerni o’zi
D) Qirol Richard II

449.(7.j.-27) Uot Tayler qo'zg'olonchilari va Qirol o’rtasida qabul qilingan "Mayl End" dasturida nimalarga ruxsat berildi?
a) dehqonlarning qaramligini bekor qilish
b) feodallar tortib olgan yaylov va o'rmonlarni qaytarish
c) ibodatxona yerlarini musodara qilib dehqonlarga bo'lib berish
d) erkin savdoga ruxsat berish
e) aholini teng huquqli bo'lishini ta'minlash
f) yer solig'ini kamaytirish
A) a, b, c,
B) d, c, e, f
C) b, d, c
D) a, d, f

450.(7.j.-27) 1455-1485-yillari Angliya taxti uchun kurashgan Lankasterlar va Yorklar bayrog'iga qanday rasm solingan edi?
A) Lankasterlar bayrog'iga qora qilich, Yorklar bayrog'ida esa oq qilich
B) Lankasterlar bayrog'iga qora ilon, Yorklar bayrog'ida esa sariq ilon
C) Lankasterlar bayrog'iga qizil lola, Yorklar bayrog'ida esa oq lola
D) Lankasterlar bayrog'iga qizil atirgul, Yorklar bayrog'ida esa oq atirgul

451.(7.j.-27) Uot Tayler qo'zg'olonchilari va Qirol o’rtasida qabul qilingan "Mayl End" dasturida belgilangan shartlarga kimlar rozi bo’lmadi?
A) qishloqlik qo'zg'olonchilar
B) qo'zg'olonchilarning kambag'al qismi
C) shaharlik qo'zg'olonchilar
D) qo'zg'olonchilarning o'ziga to'q qismi

452.(7.j.-27) Angliya tarixida "Qizil va oq gullar" urushi qachon bo’lib o’tgan?
A) 1345-1465-yillari
B) 1405-1455-yillari
C) 1412-1472-yillari
D) 1455-1485-yillari

453.(7.j.-27) Uot Tayler qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchrasada lekin, uning ta'sirida Angliyada….?
a) feodallar tortib olingan yaylov va o'rmonlar dehqonlarga qaytarildi
b) soliqlar tartibga solindi
c) ibodatxona yerlarini musodara qilinib dehqonlarga bo'lib berildi
d) dehqonlarning mehnat majburiyatlaridan (barshina) voz kechildi
e) qaram dehqonlar XV asr davomida to'lov evaziga ozodlikka erishdi
A) b, d, e
B) a, c, d
C) b, c, e
D) a, b, e

454.(7.j.-27) Angliyadagi qaysi urushda aholining ¼ qismi, nomdor zodagon - baronlarning esa, deyarlik barchasi qirilib ketgan?
A) Uot Tayler qo'zg'olonida
B) Yuz yillik urushda
C) “Qizil va oq gullar” urushida
D) Daniyaliklarning talonchiligi natijasida

455.(7.j.-27) 1485-yili "Qizil va oq gullar" urushini hal qiluvchi janggi qaerda bo'lib o'tadi va unda kim g'alaba qozonadi?
A) Akvitaniya yaqinida, Yorklar g'alaba qozonadi
B) London yaqinida, Yorklar g'alaba qozonadi
C) Bosvort yaqinida, Lankasterlar g'alaba qozonadi
D) Gastings yaqinida, Lankasterlar g'alaba qozonadi

456.(7.j.-27) "Qizil va oq gullar" urushidan keyin kimning davri (1485-1509yillar) da Angliyada qirol hokimiyati kuchayadi?
A) Genrix VII Tyudor
B) Genrix II
C) Richard II
D) Qirol Ioann

457.(7.j.-28) Orta asrlarda insonning o'rtacha umri uzoq boimasdan, odamlar qancha yoshdan so'ng qari hisoblangan?
A) 30 yoshdan so'ng
B) 35 yoshdan so'ng
C) 40 yoshdan so'ng
D) 50 yoshdan so'ng

458.(7.j.-28)Venetsiyalik savdogar va sayyoh Marko Polo o'zining "Marko Polo kitobi"da Uzoq Sharq va Xitoyda qaysi yillar davomida ko'rgan-kechirganlarini tasvirlagan?
A) 1271-1295-yillar
B) 1291-1315-yillar
C) 1260-1282-yillar
D) 1255-1275-yillar

459.(7.j.-28)O'rta asrda boshlang'ich maktablarda bolalarga qanday fanlar o'rgatilgan?
A) grammatika, falsafa asoslari va ritorika
B) arifmetika, matematika, musiqa
C) grammatika, geometriya va astronomiya
D) falsafa asoslari, ritorika va arifmetika

460.(7.j.-28)O'rta asrda yuqori bosqich maktablarida bolalarga qanday fanlar o'rgatilgan?
A) grammatika, falsafa asoslari, gimnastika, geografiya va ritorika
B) falsafa asoslari, musiqa, grammatika, ritorika, va arifmetika
C) arifmetika, matematika, musiqa, geometriya va astronomiya
D) gimnastika, musiqa, geografiya va notiqlik sa'nati

461.(7.j.-28)Qanday maktablar o'quvchilari dunyoviy bilimlarni cherkov maktablaridagiga nisbatan kengroq va chuqurroq olishgan?
A) Qishloqlarda xususiy va qishloq oqsoqollari boshqaruvidagi maktablar
B) Shaharlarda xususiy va shahar kengashlari boshqaruvidagi maktablar
C) Maxsus savdo va maktablari
D) Davlat boshqaruvidagi maktablar

462.(7.j.-28)Yevropada qachondan boshlab yirik shaharlarda dastlabki oliy maktablar - universitetlar ochila boshlandi?
A) X asrdan
B) XI asrdan
C) XII asrdan
D) XIII asrdan

463.(7.j.-28)Yevropada eng yirik universitet qaerda edi?
A) Bolonyada
B) Parijda
C) Londonda
D) Bryusselda

464.(7.j.-28)Parijda universitetning asoschisi kim edi?
A) qirol Fridrix II edi
B) qirol xonadoni a'zosi Rober de Sorbon edi
C) qirol xonadoni muallimi Rober de Sorbon edi
D) qirol xonadoni ruhoniysi Rober de Sorbon edi

465.(7.j.-28)Angliyaning eng keksa universitetlari bu?
A) Oksford va Kembridj
B) Neapol va Bolonya
C) Sevilya va Valensiya
D) Parij va Tuluza

466.(7.j.-28)Fransiyadan kelgan to'rtta o'qituvchi tomonidan dastlab oddiy bostirmada tashkil qilingan Universitet bu…?
A) Oksford universiteti
B) Neapol universiteti
C) Kembridj universiteti
D) Sevilya universiteti

467.(7.j.-28)Italiyada Fridrix II tomonidan asos solingan universitet bu…?
A) Bolonya universiteti
B) Neapol universiteti
C) Salamanka universiteti
D) Sevilya universiteti

468.(7.j.-28)Ispaniyadagi eng e'tiborli universitet ……. edi.
A) Bolonya universiteti
B) Neapol universiteti
C) Salamanka universiteti
D) Sevilya universiteti

469.(7.j.-28)Chexiyada Praga universiteti qachon ochilgan?
A) 1348-yili
B) 1365-yili
C) 1364-yili
D) 1400-yili

470.(7.j.-28)Universitet lotincha soz bolib o'zbekchada qanday ma'noni anglatadi?
A) Ta'lim makoni
B) Umumiy fikr
C) Erkin fikr
D) Majmua, umumiylik

471.(7.j.-28)Yevropada sexni ustalar boshqargani singari, universitetni o'qituvchilar ya'ni……. boshqarishgan?
A) Ustozlar
B) Magistrlar
C) Rektorlar
D) Dekanlar

472.(7.j.-28)Mahalliy hukmdorlar va universitetlar o'rtasida majaro chiqib uni hal etilishi qiyin bo'lganda…?
A) Universitet yopib tashlangan
B) Qiroldan yordam so'raganlar
C) Magistr va shkolyarlar ya'ni talabalar boshqa joyga ketganlar.
D) Unday bolmagan chunki, mahalliy hukmdorlar uchun universitetni bo'lishi sharaf hisoblangan

473.(7.j.-28)Universitetda o'qitish fakultetlarda olib borilgan, ularning esa…..
A) Ustozlar boshqargan
B) Magistrlar boshqargan
C) Rektorlar boshqargan
D) Dekanlar boshqargan

474.(7.j.-28)Universitet hamjamiyati tepasida saylangan …… yoki hokimiyat tomonidan tayinlangan …… turgan.
A) Ustoz, kansler
B) Magistr, rektor
C) Rektor, kansler
D) Dekan, magistr

475.(7.j.-28)Parij universitetida nechta va qanday fakultetlar bo'lgan?
A) Uchta, biri quyi - tayyorlov va ikkitasi oliy
B) To'rtta, biri quyi - tayyorlov va uchtasi oliy
C) Ikkita, biri quyi - tayyorlov va biri oliy
D) Beshta, ikkita quyi - tayyorlov va uchtasi oliy

476.(7.j.-28)Parij universitetida nima uchun quyi fakultetni artistlik, uning talabalarini esa, artistlar deyishgan?
A) quyi fakultetda yetti erkin san'at o'rgatilgan. San'at lotinchada “artes” deyilganligi uchun
B) quyi fakultetda aktyorlik san'ati o'rgatilgan. San'at lotinchada “artes” deyilganligi uchun
C) quyi fakultetda teatr san'ati o'rgatilganligi uchun
D) quyi fakultetda honanda-artisrlar tayyorlangani uchun

477.(7.j.-28)San'at fakultetida bir necha yil tahsil olgan shkolyar qaysi ilmiy daraja uchun imtihon topshirib ko'rishi mumkin edi?
A) Xalfalik uchun
B) Bakalavr uchun
C) Magistr uchun
D) Doktorlik uchun

478.(7.j.-28)Faqat kimlar Parij universititetining uch oliy fakulteti: ilohiyot, huquqshunoslik yoki tibbiyotda o'qishlari mumkin edi?
A) Xalfalar
B) Bakalavrlar
C) Magistrlar
D) Doktorlar

479.(7.j.-28)Kitoblarni XII asrdan boshlab rohiblar emas, balki …… tayyorlasha boshladi?
A) Shaharlik hunarmandlar
B) Maxsus sexlar
C) Yirik feodallar
D) Davlat idoralari

480.(7.j.-28)Yevropaga dastlab qog'oz qaerdan keltirilgan?
A) Xitoy va boshqa sharq shaharlaridan
B) Eron va boshqa musulmon shaharlaridan
C) Samarqand va boshqa musulmon shaharlaridan
D) Istanbul va boshqa musulmon shaharlaridan

481.(7.j.-28)Ispaniyada Yevropadagi dastlabki qog'oz ishlab chiqarish ustaxonalari qachon qurilgan?
A) IX asrdan
B) X asrdan
C) XI asrdan
D) XII asrdan

482.(7.j.-28)Yevropada dastlab qog'ozni …… tayyorlashgan.
A) Buzoq terisidan
B) Eski lattalardan
C) Ipak matolardan
D) Yog'och choqindisidan

483.(7.j.-28)Kim 1445-yili kitob bosish dastgohini kashf qiladi?
A) Nemis injeneri Iogann Gutenberg
B) Oksford universiteti professori Rojer Bekon
C) Fransiya qirolligi ruhoniysi Rober de Sorbon
D) Venetsiyalik savdogar va sayyoh Marko Polo

484.(7.j.-28)Kim XIII asrda fandagi yutuqlarga faqat ilmiy kuzatishlar va tajribalar yo'li bilan erishish mumkinligini isbotladi?
A) Fransiya qirolligi ruhoniysi Rober de Sorbon
B) Venetsiyalik savdogar va sayyoh Marko Polo
C) Nemis injeneri Iogann Gutenberg
D) Oksford universiteti professori Rojer Bekon

485.(7.j.-28)Kim "har qanday bilim o'z maqsadi bo'yicha xudoni anglashga yo'llangan bo'lmasa, gunoh", deya ta'kidlagan?
A) Fransiya qirolligi
B) Xristian cherkovi
C) Nemis injeneri Iogann Gutenberg
D) Oksford universiteti professori Rojer Bekon

486.(7.j.-28)O'rta asrlarda astrologiya, alximiya fanlari yuksak rivojlangan. Alximiklar har qanday ma'danni oltinga aylantirish uchun nimani izlaganlar?
A) "sehrli moddani"
B) "kimyoviy moddani"
C) "sehrli toshni"
D) "sehrli aralashmani"

487.(7.j.-29)XI asrdan G'arbiy Yevropada qurilish sohasida toshdan keng foydalanishga o'tiladi. Undan….?
A) dastlab qirollqr qasri va monastirlar barpo etiladi.
B) dastlab ibodatxona va monastirlar barpo etiladi.
C) dastlab shahar uylari va bozorlar barpo etiladi.
D) dastlab xarbiy istexkomlar va shahsr deborlari barpo etiladi.

488. (7.j.-29)Qurilish toshlari boimagan Angliya va Polshada saroylar va ibodatxonalar nimadan qurilagan?
A) O'rmon yog'ochlaridan
B) Xom g'ishtdan
C) Pishiq g'ishtdan
D) Paxsa devordan

489.(7.j.-29)Fransiya, Italiya va Germaniya me'morchiligida dastlab qanday uslub hukmron bo'lgan?
A) G'arbona uslub
B) Roman uslubi
C) Gotik uslub
D) Aralash uslub

490.(7.j.-29) "Qalin devorli, baland minorali va tor derazali, salobatli uzun binodir. Tashqi tomondan u qal'ani eslatadi. Uning o'ziga xos tomonlari shundan iboratki, deraza tepasi, ibodatxonaga kiraverish ichki gumbazlar yarim doira shaklidagi ravoq (ark)lar bilan bezatilgan". Qanday uslubda qurilgan ibodatxona haqida so'z bormoqda?
A) Gotik uslubidagi ibodatxona
B) Vizantiya uslubdagi ibodatxona
C) Roman uslubidagi ibodatxona
D) Aralash uslubdagi ibodatxona

491.(7.j.-29)Qaysi uslubda qurilgan imoratlar balandligi bilan xususiyatlangan?
A) Vizantiya uslubdagi
B) Roman uslubdagi
C) Gotik uslubdagi
D) Aralash uslubdagi

492.(7.j.-29)Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi, Ruan, Reyms va Shartr (Fransiya), Milan (Italiya) ibodatxonalari qanday uslubda qurilgan?
A) Gotik uslubda
B) Aralash uslubda
C) Vizantiya uslubda
D) Roman uslubda

493.(7.j.-29)G'arbiy Yevropa san'atida roman uslubi qaysi davrlarda hukm surgan?
A) VI asrdan XII asrlargacha
B) VII asrdan XIII asrlargacha
C) IX asrdan XIII—XIV asrlargacha
D) X asrdan XII—XIII asrlargacha

494.(7.j.-29)Gotika uslubi XII asr o'rtalarida qaerda yuzaga kelgan?
A) Sharqiy Italiyada
B) Shimoliy Angliyada
C) Sharqiy Germaniyada
D) Shimoliy Fransiyada

495.(7.j.-29)Venetsiyadagi Avliyo Mark ibodatxonasi va Dojiar saroyi qaysi uslubida bunyod etilgan?
A) Gotik uslubda
B) Aralash uslubda
C) Vizantiya uslubda
D) Roman uslubda

496.(7.j.-29)Ispaniyaning Sevilya shahridagi masjid va Al-Qasar qasri, Granadadagi Al-Humro saroylari qaysi me'morchilik durdonalari hisoblanadi?
A) Gotik uslubning
B) Arab uslubning

C) Vizantiya uslubning
D) Roman uslubning

497.(7.j.-29)Yevropada haykallarning asosiy buyurtmachilari kim bo’lgan?
A) Yirik feodallar bo'lgan
B) Qirollar bo'lgan
C) Yirik savdogarlar bo'lgan
D) Cherkov bo'lgan

498.(7.j.-29)Qaysi haykal Yevropada "Madonna" deb nomlanadi?
A) Iso payg’ambar haykali
B) Avliyo Pyotr haykali
C) Bibi Maryam haykali
D) Cherkov haykalari

499.(7.j.-29)Antik davr haykallarida inson tanasining go'zalligi ulug'langan bo'lsa, o'rta asr haykal-taroshlari…..?
A) tashqi go'zallik orqali o'z qahramonlarining o'y-hayollari, hislarini ifodalashga intilganlar.
B) ichki go'zallik orqali o'z qahramonlarining hislarini ifodalashga intilganlar.
C) Mavhumlikdan uzoqlashib, koproq mavjud narsalarni ifodalashga intilganlar.
D) Mavjud narsalardan uzoqlashib, koproq mavhumlikni ifodalashga intilganlar.

500.(7.j.-29)Kitoblarni bezash uchun tasviriy san'atning yangi yo'nalishi bu…?
A) Karikarature
B) Freska
C) Miniature
D) Mozayika

501.(7.j.-29)Miniatura so’zi qanday ma’noni anglatadi?
A) (lotincha miniature - qizil bo'yoq) - badiiy jihatdan o'ta yorqin bo'lgan katta hajmdagi tasviriy san'at asari.
B) (fransuzcha miniature; lotincha minium - qizil bo'yoq) - badiiy usullari o'ta nafis bo'lgan kichik hajmli (mo'jaz) tasviriy san'at asari.
C) (lotincha minium — qizil chiziq) - o'ta nafis bo'lgan devoriy tasviriy san'at asari.
D) (inglizcha miniature; lotincha minium — qizil yo’l) - badiiy jihatdan o'ta rangdor bo'lgan ulkan hajmli tasviriy san'at asari.

502.(7.j.-29)O'rta asr dostonlardan eng mashhuri — “Roland haqida qo'shiq” bo'lib, u qachon yaratilgan?
A) XIII asrda
B) IX asrda
C) XI asrda
D) XII asrda

503.(7.j.-29)Yevropada XII asrda yaratilgan asarlarni toping?
a) Ispan xalq og'zaki ijodi durdonasi “Sid haqida qo'shiq”
b) Qadimgi britan qiroli Artur haqidagi asarlar turkumi
c) “Roland haqida qo'shiq”
d) Franchesko Petrarkaning “Qo'shiqlar kitobi” va “She'riy maktublari”
A) a, c, d
B) b, c, d
C) a, b, c
D) a, b, d

504.(7.j.-29)Qaysi dostonda xunnlarning burgundlar (nibelunglar) davlatini tor-mor etishi voqealari tasvirlanadi?
A) “Nibelunglar haqida qo'shiq”
B) “Sid haqida qo'shiq”
C) Artur haqidagi asarlarda
D) “Roland haqida qo'shiq”

505.(7.j.-29)Qaysi asarda qahramonlarining fojiali sevgisi hikoya qilinadi?
A) “Nibelunglar haqida qo'shiq”da
B) “Sid haqida qo'shiq”da
C) “Tristan va Izolda”da
D) “Roland haqida qo'shiq”da

506.(7.j.-29)Fransiyada yaratilgan "Tulki haqida roman" asarda qaysi tabaqa qanday xayvonga o’xshatilgan?
1.Shaharlik, 2.Qirol, 3.Feodal, 4.Ritsar, 5.Ruhoniy
a) Sher
b) ahmoq Ayiq
c) Eshak
d) ochko'z Bo'ri
e) topqir va dovyurak Tulki
A) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b, 5-e
B) 1-e, 2-a, 3-b, 4-d, 5-c
C) 1-b, 2-e, 3-a, 4-d, 5-b
D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-e, 5-d

507.(7.j.-29)Insonni olamning markaziga qo'yib, uning yaratuvchilik dahosini tan olishga chaqiruvchilar?
A) Gumanistlar
B) Renessanschilar
C) “yangi zamon” egalari
D) Ruhoniylar

508.(7.j.-29)Kim yoki nima doimo gumanistiar diqqat markazida turgan?
A) har tomonlama mukammal, ichki va tashqi ko'rinishi puxta va chiroyli mexnat qurollari.
B) har tomonlama go’zal va farovon hayot.

C) har tomonlama barkamol, fikrlovchi, ichki dunyosi va tashqi ko'rinishi jihatidan ko'rkam inson.
D) Jismoniy jihatdan barkamol, tashqi ko'rinishi chiroyli va ko'rkam inson.

509.(7.j.-29)Gumanistlar antik davr va Uyg'onish orasidagi (V—XV asrlarni) davrni qangay ataganlar?
A) "yangi zamon"
B) nodonlik, jaholat asri
C) urushlar asri
D) uyqudagi davr

510.(7.j.-29)Gumanistlar gumanizm davrini (XVI asr) qanday ataganlar?
A) "yangi zamon"
B) nodonlik, jaholat asri
C) urushlar asri
D) uyqudagi davr

511.(7.j.-29)XV asrda Italiyaning yirik madaniyat markazi bu….?
A) Florensiya
B) Meapol
C) Venetsiya
D) Rim

512.(7.j.-29)Yevropadagi birinchi Kruska akademiyasi 1582-yili qaerda ochilgan?
A) Venetsiyada
B) Rimda
C) Florensiyada
D) Meapolda

513.(7.j.-29)Aldo Manutsiya bosmaxonasida nashr qilingan antik davr mualliflari va gumanistiar asarlari butun Yevropada keng tarqalgan. Ushbu bosmahona qaysi shaharda edi?
A) Venetsiyada
B) Rimda
C) Florensiyada
D) Meapolda

514.(7.j.-29)Ilk o'yg'onish va gumanizmning Yevropadagi dastlabki vakili shoir Franchesko Petrarka (1304-1374)ning lirik she'rlari to'plamini toping?
A) “Sid haqida qo'shiq” va “Roland haqida qo'shiq”
B) “Qo'shiqlar kitobi” va “She'riy maktublari”
C) “Dekameron”
D) “Nibelunglar haqida qo'shiq”

515.(7.j.-29)Yangi uslub - novellalarni yozishni boshlab bergan va "Dekameron" asari muallifi bo’lgan abibni toping.
A) Kolyuchcho Salyutati
B) Franchesko Petrarka
C) Bokachcho
D) Aldo Manutsiya

516.(7.j.-29)Kim yuksak g'oyali, o'qimishli kishini tarbiyalashda, ijtimoiy fanlar: filologiya, ritorika, tarix, pedagogika, etikaning o'ta muhim ekanligini ta'kidlagan?
A) Kolyuchcho Salyutati
B) Franchesko Petrarka
C) Bokachcho
D) Aldo Manutsiya

517.(7.j.-30) Germaniyada ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi qachondan boshlangan?
A) X asrdan
B) XI asrdan
C) XII asrdan
D) XIII asrdan

518.(7.j.-30) Germaniyaning Reyn daryosi bo'ylaridagi yirik hunarmandchilik va savdo markazlarini toping.
A) Kyoln va Vorms
B) Frankfurt
C) Ulm va Nyurenberg
D) Augsburg

519.(7.j.-30) Germaniyaning Mayn daryosi bo'ylaridagi yirik hunarmandchilik va savdo markazlarini toping.
A) Ulm va Nyurenberg
B) Augsburg
C) Kyoln va Vorms
D) Frankfurt

520.(7.j.-30) Germaniyani 1138— 1254-yillarda boshqargan sulolani toping.
A) Frankoniyaliklar sulolasi
B) Saksoniya sulolasi
C) Shtaufenlar sulolasi
D) Lankasterlar sulolasi

521.(7.j.-30) Germaniya qiroli Fridrix I Barbarossa (1152-1190) qaysi sulola vakili bo’lgan?
A) Frankoniyaliklar sulolasi vakili
B) Shtaufenlar sulolasi vakili
C) Lankasterlar sulolasi vakili
D) Saksoniya sulolasi vakili

522.(7.j.-30) Qaysi yili Ronkal vodiysida chaqirilgan seym Fridrix I ning Italiyadagi hokimiyatini cheklanmagan deya e'tirof etadi?
A) 1162-yil
B) 1138-yil

C) 1254-yil
D) 1158-yil

523.(7.j.-30) Fridrix I ning Bolonyadan taklif etgan eng bilimdon huquqshunoslari uning xizmatiga kirib, qonun majmualarini tuzib beradilar. Bu qonunda kim "yerdagi jonli qonun" deb e'tirof qilinadi?
A) Fridrix I Barbarossa
B) Fridrix I o'g'li Genrix VI
C) Papa Innokentiy III
D) Fridrix II

524.(7.j.-30) Fridrix I qaysi jangdan keyin Shimoliy Italiya shaharlariga kommuna - erkinlik huquqini berishga majbur bo'ladi?
A) 1162-yili Milan boshchiligida Lombardiya shaharlari bosqinchilarga qarshi qo'zg'olondan keyin
B) 1176-yilda Lenyano jangidan keyin
C) Fridrix I Shimoliy Italiya shaharlariga hech qanday kommuna - erkinlik huquqi bermagan
D) 1150-yili Milan jangidan keyin

525.(7.j.-30) Germaniyaning "g'alati" imperatori bu…?
A) Fridrix I Barbarossa
B) Fridrix I o'g'li Genrix VI
C) Fridrix II
D) Fridrix II ning 16 yoshli nabirasi Konradin

526.(7.j.-30) Germaniyaning qaysi imperatori arab va yunon tiilarini bilgan, lotin tilida asarlar, italyan tilida she'rlar yozgan?
A) Fridrix II
B) Fridrix II ning 16 yoshli nabirasi Konradin
C) Fridrix I Barbarossa
D) Fridrix I o'g'li Genrix VI

527.(7.j.-30) Rim papalarini ichida qaysi papa Germaniya siyosatiga o'z ta'sirini o'tkazgan?
A) Papa Grigoriy IX
B) Papa Urban II
C) Papa Lev III
D) Papa Innokentiy III

528.(7.j.-30) Fridrix II ning qaysi saroyi arab xalifalarining saroylarini eslatar edi?
A) Qishki saroyi
B) Sitsiliyadagi saroyi
C) Palermodagi saroyi
D) Milandagi saroyi

529.(7.j.-30) Fridrix II mamlakat bo'ylab harakatlanganida uni kimlar kuzatib brogan?
A) Og’ir artereliya qo’shinlari
B) Filbonlar va jangchilar o'tirgan fillar
C) Butun armiya askarlari
D) Yengil artereliya qo’shinlari

530.(7.j.-30) Fridrix II ovchilik haqida asar yozgan bo’lib, bu asar uni shu sohadan yaxshi xabardorligidan dalolat beradi. Hozirgacha saqlanib qolgan ushbu asar nomimi toping.
A) "Qushlar bilan ov qilish"
B) "Fillar bilan ov qilish"
C) "Qoplonlar bilan ov qilish"
D) "Sherlar bilan ov qilish"

531.(7.j.-30) Fridrix II qaysi universitetga asos slogan?
A) Praga universitetiga
B) Parij universitetiga
C) Kembrij universitetiga
D) Neapol universitetiga

532.(7.j.-30) Tarixda cherkov, yoki shahar kengashi emas, hukmdor tomonidan tashkil etilgan birinchi universitet bu…?
A) Praga universitetiga
B) Kembrij universitetiga
C) Neapol universitetiga
D) Parij universitetiga

533.(7.j.-30) Zamondashlari Fridrix II ning g'ayritabiiy qobiliyati va qudratiga qoyil qolib, unga qanday nom berishgan?
A) "Jahon qiroli" deb
B) "Dunyo imperatori" deb
C) "Dunyo kulgusi" deb
D) "Jahon hayrati" deb

534.(7.j.-30) Papa Grigoriy IX (1227-1241) nima uchun Fridrix II ni cherkovdan xolis deb farmon chiqargan?
A) Fridrix II imperatorlik tojini kiyish marosimida Falastinga salib yurishini tashkil qilishga qasamyod qilib unda qo’shin bilan qatnashmagani uchun
B) Fridrix II papaning qaroriga qarshi borib, Misr sultoni bilan muzokaralar olib bormagani uchun
C) Quddusni egallagach unda masjidlar faoliyati davom etgani uchun
D) Quddus, Vifliyem, Nazaret, boshqa shaharni Misr sultoniga oldirib qo’ygani uchun

535.(7.j.-30) Fridrix II kimga uning qanday dushmani boimasin, nasroniy yoki musulmonligidan qat'iy nazar yordam berajagini izhor etgan?
A) Misr sultoniga
B) Rim papasi Grigoriy IX ga
C) 16 yoshli nabirasi Konradinga
D) Knyaz Rudolf Gabsburgga

536.(7.j.-30) Rim papasi Fridrix II ni qaysi yilda yana bir bor cherkovdan xolis deb e'lon qiladi?
A) 1273-yili
B) 1254-yili
C) 1245-yili
D) 1260-yili

537.(7.j.-30) Papa tarafdorlari Staufenlar sulalasining qaysi vakilini ritsarlik taomiliga qarshi jallod kundasida qatl etadilar?
A) Fridrix II ni
B) Fridrix II ning 16 yoshli nabirasi Konradinni
C) Fridrix I Barbarossani
D) Fridrix I o'g'li Genrix VI ni

538.(7.j.-30) Germaniyada qaysi yillari umuman imperator saylanmaydi?
A) 1245—1260-yillari
B) 1250—1271-yillari
C) 1220—1265-yillari
D) 1254—1273-yillari

539.(7.j.-30) Germaniyada knyazlar 1273-yili to'planib Staufenlar sulolasi o'rniga kimni taxtga o'tqazadilar?
A) Rudolf Gabsburgni
B) Lyuksemburglar sulolasi vakilini
C) Saksoniyliklar sulolasi vakilini
D) Frankoniya sulolasi vakilini

540.(7.j.-30) Germaniyada Gabsburglar sulolasining 369 yillik imperatorliklari qachondan boshlangan?
A) 1254-yildan
B) 1273-yildan
C) 1400-yildan
D) 1437-yildan

541.(7.j.-30) Germaniya tarixida mamlakatga qaysi sulolalar hukmronlik qilgan?
A) Franklar, Tyudorlar, Shtaufenlar, Augsburglar, Gabsburglar
B) Ganzaliklar, Frankoniya, Shtaufenlar, Lyuksemburglar, Gabsburglar
C) Korolinglar, Shtaufenlar, Lyuksemburglar, Yorklar
D) Saksoniyliklar, Frankoniya, Shtaufenlar, Lyuksemburglar, Gabsburglar

542.(7.j.-30) Germaniyaning shimolidagi shaharlar XIV asrning o'rtalariga kelib qanday ittifoqqa birlashadilar?
A) Shvabiya ittifoqiga
B) Nyurenberg ittifoqiga
C) Ganza ittifoqiga
D) Ulm ittifoqiga

543.(7.j.-30) Dunay sohili bo'ylab joylashgan 90 ta shaharni birlashtirgan ittifoq bu…?
A) Shvabiya ittifoqi
B) Nyurenberg ittifoqi
C) Ganza ittifoqi
D) Ulm ittifoqi

544.(7.j.-30) Germaniyaning qaysi shaharlari movut, surp, ip-gazlamalar ishlab chiqarishda, metall buyumlar, qurol-aslahalar yasashda yetakchi mavqeda turgan?
A) Kyoln, Vorms va Strasburg shaharlari
B) Ganza va Shvabiya shaharlari
C) Augsburg, Ulm va Nyurenberg shaharlari
D) Augsburg, Gabusburg va Frankfurt shaharlari

545.(7.j.-30) Reyn daryosi bo'ylab joylashgan g'arbdagi qaysi shaharlarda metall ishlab chiqarish va movut to'qish yahshi rivojlangan?
A) Kyoln, Vorms va Strasburg shaharlarida
B) Ganza va Shvabiya shaharlarida
C) Augsburg, Ulm va Nyurenberg shaharlarida
D) Augsburg, Gabusburg va Frankfurt shaharlarida

546.(7.j.-31) Rus yerlarining fojiasi o'zaro qonli urushlarda bo'lib, mavjud vaziyatni nima yanada murakkablashtirar edi?
A) Iqtisodiy qaloqlik
B) Xunlarning hujumlari
C) Qipchoqlarning hujumlari
D) Polyaklarning hujumlari

547.(7.j.-31) Kiyev knyazi Yaroslav Donishmandning o'g'ii Vladimir Monomax qachon va qaerda knyazlarning birinchi syezdini chaqirdi va unda o'zaro urushlarga chek qo'yish mo'ljallandi.
A) 1080-yili Kiev shahrida
B) 1097-yili Lyubech shahrida
C) 1097-yili Navgorod shahrida
D) 1100-yili Moskva shahrida

548.(7.j.-31) Rus knyazlari Vladimir Monomax (1113—1125) va uning o'g'li Mstislav (1125-1132) davrida kimlarga katta talafotlar etkaziladi?
A) Mo'g'illarga
B) Polyaklarga
C) Daniyaliklarga
D) Qipchoqlarga

549.(7.j.-31) Vladimir Monomax va uning o'g'li Mstislavning vafotidan keyin rusda 15 ta mustaqil knyazlik bo'lsa, keyingi asrda, Botuxon bosqinlari arafasida ularning soni qanchaga yetdi?
A) 25 taga
B) 30 taga
C) 40 taga

D) 50 taga

550.(7.j.-31) Rossiyada XI asrda vujudga kelgan va faqat Rusningginа emas, Yevropaning ham yirik hunarmandchilik va savdo markaziga aylangan shahar bu…?
A) Kiev shahri
B) Lyubech shahri
C) Navgorod shahri
D) Moskva shahri

551.(7.j.-31) Novgorod 1136-yilgi qaysi voqeadan keyin uzil-kesil feodal respublikaga aylandi?
A) Monomaxning nabirasi Vsevolod Mstislavichni knyazlik taxtidan chetlatib, zindonga tashlashgandan keyin
B) Novgorod xristian yepiskopi tomonidan qo'liga olingandan so'ng
C) Novgorod xalq vechesida saylangan shahar hokimi tomonidan qo'liga olingandan so'ng
D) Novgorod feodallar tomonidan qo'liga olingandan so'ng

552.(7.j.-31) Novgorod feodal respublikasiga aylangach uning siyosiy hayotida asosiy o'rinni kim egallagan?
A) xalq vechesida saylangan shahar hokimi egallagan
B) saylanadigan "shahar dumasi" egallagan
C) shahar yepiskopi egallagan
D) xalq vechesida saylangan shahar hokimi, saylanadigan "shahar dumasi" va yepiskop egallagan

553.(7.j.-31) Vladimir Monomaxning o'g'li Yuriy Dolgorukiyning Kiyev ustidan 1147-yilgi g'alabasini nishonlash sharafiga asos solingan Kuchkovo qo'rg'oni, keyinchalik qanday nom bilan ataladi?
A) Moskva
B) Vladimir
C) Suzdal
D) Novgorod oladi

554.(7.j.-31) Vladimir-Suzdal knyazligi va Moskva shahri qaysi asrdan Rus yerlarining birlashuviga asos bo'ladi?
A) XIII asrdan
B) XIV asrdan
C) XV asrdan
D) XVI asrdan

555.(7.j.-32) Dastlab Mo'g'ul qo'shinlarini rus yerlariga qachon bostirib kirgan?
A) 1237-yili
B) 1242-yili
C) 1223-yili
D) 1240-yili

556.(7.j.-32) Mo'g'ullar tomonidan Kiyev shahri qachon bosib olindi?
A) 1237-yili
B) 1242-yili
C) 1223-yili
D) 1240-yili

557.(7.j.-32) Botuxon boshchiligidagi mo'g'ullar Rus yerlarini qaysi yillari bosib oladi?
A) 1223—1237-yillarda
B) 1237—1240-yillarda
C) 1237—1240-yillarda
D) 1240—1254-yillarda

558.(7.j.-32) Botuxon yangi bosib olingan hududlarda Oltin O'rda xonligini tuzadi. Uning poytaxti Saroy Botu (keyinchalik Saroy Berka) qaerda joylashgan edi?
A) Ural daryosining yuqori oqimida, hozirgi Ostona shahri yaqinida bo'lgan.
B) Volga daryosining quyi oqimida, hozirgi Astraxan shahri yaqinida bo'lgan.
C) Dnepr daryosining quyi oqimida, hozirgi Kiev shahri yaqinida bo'lgan.
D) Irtish daryosining yuqori oqimida, hozirgi Bishkek shahri yaqinida bo'lgan.

559.(7.j.-32) "U mo'g'ullarning gulxanlar orasidan o'tib tozalanish va sanamlarga ta'zim etish udumlarini bajarishdan bosh tortadi. Bunga javoban mo'g'ullar knyazni kaltaklab o'ldirishadi. Keyinchalik, pravoslav cherkovi uni avliyo deb e'lon qilib, hokini Moskva Kremlidagi Arxangelsk ibodatxonasida dafn etadi". Bu ma'lumotlar qaysi knyaz haqida?
A) Vladimir Monomaxning o'g'li Yuriy Dolgorukiy
B) Chernigov knyazi Mixail Vsevolodovich
C) Vladimir knyazi Yaroslav
D) Monomaxning nabirasi Vsevolod Mstislavich

560.(7.j.-32) Ruslar1240-yilning 15-iyulida Neva daryosi sohilidagi jangda shvedlar ustidan g'alaba qozonadi. Bu g'alaba sharafiga qaysi knyazga Nevskiy nomi beriladi?
A) Novgorod knyazi Aleksandr Yaroslavichga
B) Vladimir Monomaxning o'g'li Yuriy Dolgorukiyga
C) Chernigov knyazi Mixail Vsevolodovichga
D) Vladimir knyazi Yaroslavga

561.(7.j.-32) 1242-yilning 5-aprelida Chud ko'lidagi jangda Aleksandr Nevskiy boshchiljgidagj rus qo'shinlari nemis ritsarlari

ustidan g'alabaga erishadi. Bu jang Rus tarixida qanday nomi bilan ataladi?
A) "Chud ko’idagi jang"
B) "Ritserlar jangi"
C) "Muz ustida jang"
D) "Nevskiy jangi"

562.(7.j.-33)XIV asrning boshlarida bir asr avval Vladimir knyazligi chekkasi hisoblangan qaysi qo'rg'onlar shaharlarga aylanib, rus yerlarining yangi markazlari sifatida yuksala boshlaydi?
A) Navgorod va Moskva
B) Galich-Volin
C) Tver va Rostov
D) Tver va Moskva

563.(7.j.-33) Rus Knyazlarini o'zaro kurashi faqat qaysi knyaz davrida uzil-kesil Moskva foydasiga hal bo'ladi?
A) Ivan Kalita (1325-1340) davrida
B) Dmitriy Ivanovich (1359-1389) davrida
C) knyaz Ivan III davrida
D) Novgorod knyazi Aleksandr Neviskiy davrida

564.(7.j.-33) Qaysi yili Moskva knyazi Dmitriy Ivanovich (1359-1389) Voje daryosi bo'yida mo'g'ullarga qarshi kurashdagi dastlabki g'alabaga erishadi?
A) 1380-yili
B) 1391-yili
C) 1378-yili
D) 1395-yili

565.(7.j.-33) Knyaz Dmitriy qo'shinlari 1380-yilning sentabrida Don daryosi sohilidagi Kulikovo maydonida Oltin O'rda tumanboshisi Mamay boshchiligidagi mo’g’illar ustidan yana g'alaba qozonadi. Bu g'alaba sharafiga Moskva knyaziga qanday nom beriladi?
A) Kulikovoy
B) Donskoy
C) “Vatan o’loni”
D) “Vatan jangchisi”

566.(7.j.-33) Knyaz Dmitriyning Don daryosi sohilidagi Mamay boshchiligidagi mo’g’illar ustidan g'alaba qozonganidan qancha o'tib To'xtamishxon yana Moskva ustidan hukmini o'rnatib, rus knyazlarini boj-yasoq toiashga majbur etadi?
A) 2 yil
B) 3 yil
C) 4 yil
D) 5 yil

567.(7.j.-33) Sohibqiron Amir Temurning Oltin O'rda ustidan 1391-yili Qunduzcha, 1395-yili Tarak daryosi bo'yidagi janglarda g'alabalari Rus yerlari va Sharqiy Yevropa xalqlari hayotiga qanday ta’sir etdi?
A) Ular mo'g'ullar zulmidan butunlay ozod etildi
B) Mo'g'ullar bu xududlarga chekinib u yerlarni butunlay vayron etdi
C) Ularni mo'g'ullar zulmidan ozod etilishida hal qiluvchi omillardan bo'ladi
D) Ularni mo'g'ullarga yanada qaram qilib qo’ydi

568.(7.j.-33) Qaysi yili knyaz Ivan III Moskva Oltin O'rdaga boj-yasoq to'lashdan bosh tortadi?
A) 1391-yili
B) 1395-yili
C) 1480-yili
D) 1490-yili

569.(7.j.-33) Rus yerlarida mo'g'ullar hukmronligi qancha davom etgan?
A) deyarlik 200 yil
B) deyarlik 250 yil
C) deyarlik 300 yil
D) deyarlik 350 yil

570.(7.j.-34)O'rta Osiyoda Saljuqbek asos solgan sulola boshchiligidagi o'g'uz qabilalarining Old Osiyoga yirik harbiy yurishlari qaysi asrdan boshlab kuchaygan?
A) IX asrdan
B) X asrdan
C) XI asrdan
D) XII asrdan

571.(7.j.-34)Qaysi yili Vizantiyaning yollanma qo'shini Saljuqiylar sultoni Alp Arslon lashkari tomonidan Mansikert jangida tor-mor etildi?
A) 1038-yili
B) 1071-yili
C) 1090-yili
D) 1100-yili

572.(7.j.-34)Saljuqiylar davlati (1038— 1308)ga kim asos solgan?
A) o'g'uz qabilalarining sardori Saljuqbek
B) Saljuqiylar sultoni Alp Arslon
C) Saljuqning nevarasi Ahmadbek
D) Saljuqning nevarasi Sulton To'g'rulbek

573.(7.j.-34)Ko’chmanchi Saljuqiy turklarda feodal davlat qachon uzil-kesil shakllangan?
A) X—XI asrlarda
B) XI—XII asrlarda
C) XII—XIII asrlarda
D) XIII—XIV asrlarda

574.(7.j.-34)Saljuqiylar davrida Kichik Osiyoda qaysi shaharlar eng yirik shaharlar qatorida bo'lib ularda o'n minglab aholi yashagan?
A) Izmir, Suvas, Istanbul
B) Ko'nyo, Suvas, Qaysariya
C) Onodo'li, Anqara, Qaysariya
D) Ko'nyo, Onodo'li, Izmir

575.(7.j.-34)Saljuqiy sultonligida devon hujjatlari va yozishmalar qaysi tilida olib borilgan?
A) Turkiy tilida
B) Fors tilida
C) Arab tilida
D) Grek tilida

576.(7.j.-34)Sharqning buyuk mutafakkiri Jaloliddin Rumiy (1207-1273) o'z ijodining asosiy qismini Kichik Osiyodagi qaysi shaharda o'tkazgan?
A) Onodo'lida
B) Qaysariyada
C) Izmirda
D) Ko'nyoda

577.(7.j.-34)Asta-sekin turkiy qabilalarning mahalliy aholi bilan aralashishi yangi etnos - turk xalqining shakllanishiga asos bo'ladi. Bu jarayon qaysi davrda yanada kuchayadi?
A) XI asrning 20-yillarida
B) XII asrning 30-yillarida
C) XIII asrning 20-30-yillarida
D) XIV asrning 40-50-yillarida

578.(7.j.-34)Qachon Saljuqiylar davlatiga mo'g'ullar bosqini yuz berdi?
A) 1308-yili
B) 1299-yili
C) 1038-yili
D) 1243-yili

579.(7.j.-34)Usmoniylar Sulolasi asoschisi Usmon (1299— 1326) davrida qator yurishlar uyushtirilib, qaysi shahar bosib olindi?
A) Bursa shahri
B) Nikeya va Nikomediya shaharlari
C) Konstantinopol shahri
D) Izmir shahri

580.(7.j.-34)Sulolasi asoschisi Usmonning o'g'li O'rxon Vizantiyaning qaysi shaharlarini bosib olib, Qora dengiz sohiliga chiqdi?
A) Konstantinopol va Ardianopol shaharlarini
B) Bursa va Konstantinopol shaharlarini
C) Nikeya va Nikomediya shaharlarini
D) Izmir va Nikopol shaharlarini

581.(7.j.-34)Usmoniylar davlatida kimning boshqaruvi paytida ilk bor vazir lavozimi ta'sis etiladi?
A) Usmonning
B) O'rxonning
C) Boyazid Yildirimning
D) Mexmet II ning

582.(7.j.-34)Usmoniylar sultoni O'rxon qanday harbiy islohotlar o'tkazadi?
A) qo'shinni piyoda va otliq qismlarga ya'ni alohida harbiy birliklarga aylantiradi
B) yanicharlar – piyoda qo'shinni tashkil etadi.
C) doimiy armiya tuzadi
D) Qo'shinni har bir suvoriysiga 3-5 ming piastr daromad keltiradigan yer-mulk - tumori beriladi

583.(7.j.-34)"Musallam" – bu…?
A) qo'shinni piyoda qismi
B) qo'shinni otliq qismi
C) qo'shin bosh qo'mondoni
D) jang rejasi

584.(7.j.-34)Usmoniylar davlati asos solingan va tugatilgan yilni ko'rsating?
A) 1243-1820-yillar
B) 1308-1710-yillar
C) 1299-1922-yillar
D) 1353—1757-yillar

585.(7.j.-34)Usmoniylarni Bolqondagi dastlabki bosqinlari yillarini toping.
A) 1243-1820-yillari
B) 1308-1710-yillari
C) 1299-1922-yillari
D) 1353—1357-yillari

586.(7.j.-34)1389-yildagi qaysi jangda turk qo'shinlarining g'alabasi serblarning o'z mustaqilligini yo'qotishiga olib keladi?
A) Kosovo maydonidagi jangda
B) Tirnovo jangida
C) Nikopol yonidagi jangda
D) Adrianopol jangida

587.(7.j.-34)Usmoniylar 1396-yili qaysi jangda venger, valax, bolgarlardan tuzilgan 60 minglik ritsarlar qo'shinini yengadi?
A) Kosovo maydonidagi jangda
B) Tirnovo jangida
C) Nikopol yonidagi jangda
D) Adrianopol jangida

588.(7.j.-34)Turk sultoni Boyazid (1389-1402) bosqinchilik janglarida o'zining tezkor g'alabalari bilan shuhrat qozonib qanday nom oladi?
A) Yovuz

B) Yildirim (Shiddatli)
C) Kosovo (Chaqmoq)
D) Yildirim (Mamaqaldiroq)

589.(7.j.-34)Qaysi voqea turklar tomonidan Konstantinopolning olinishiga yo'l qo'ymay, Vizantiyaning yana 50 yil yashashiga imkon yaratgan?
A) Turk sultoni Boyazidning betob bo'lib o'lishi
B) 1402-yilning yozida Anqara yaqinidagi jangda Amir Temur qo'shinlaridan Boyazid lashkarini yengilishi
C) 1400-yili Misr sultoni qo'shinlaridan Boyazid lashkarini yengilishi
D) 1396-yili Vizantiya qo'shinlaridan Boyazid lashkarini yengilishi

590.(7.j.-34)Qachon Konstantinopol turklar tomonidan bosib olinadi?
A) 1451-yilning bahorida
B) 1481-yilning 12-iyunida
C) 1402-yilning yozida
D) 1453-yilning 29-mayida

591.(7.j.-34)Usmoniylar Konstantinopol shaharini qanday nomlab, unga o'z poytaxtlarini ko'chiradi?
A) Anqara
B) Bursa
C) Istanbul
D) Izmir

592.(7.j.-34)Usmoniy turklar xarbiy qudratining sababi…?
A) sultonlarning lashkarboshilik xususiyatlariga egaligi va yaxshi tashkil etilgan otliq va piyoda qo'shin
B) hukmdorga sadoqatli yanicharlar - piyoda qo'shinining mavjudligi
C) Qo'shinni har bir suvoriysiga 3-5 ming piastr daromad keltiradigan yer-mulk - tumori berilganligi
D) A, B, C

593.(7.j.-34)XIV asrning o'rtalaridan, asirga olingan eng sog'lom va baquvvat xristian bolalaridan, turk sultonning shaxsiy gvardiyasi jangchilari tarbiyalangan. Yillar o'tib bolalar o'z tilini va dinini unutib, sultonning kimiga aylangan?
A) sodiq vaziriga
B) saroy ruhoniysiga
C) sodiq yanicharlariga
D) saroy xizmatkoriga

594.(7.j.-34)Turk qo'shiniga shuhrat keltirgan lashkarboshi va jangchilarning aksari ko'pchiligi kimlardan chiqqan?
A) Yanicharlardan
B) Dehqonlardan
C) Hunarmandlardan
D) Saroy amaldorlaridan

595.(7.j.-34)1475-yili Usmoniylar imperiyasi qaer bo'ysundiriladi.
A) Mesopotamiya
B) Armaniston va Gruziya
C) Suriya va Arabiston
D) Qrim yarim oroli

596.(7.j.-34)Usmoniylar mamlakatida Mehri xotun va Mulla Mahmud qanday kasb egalari bo'lgan?
A) tarixchi va rassom
B) shoira va shoir
C) raqqosa va me'mor
D) tikuvchi va xarbiy

597.(7.j.-34)Usmoniylar mamlakatini grek millatiga mansub me'morning qurgan ajoyib me'morchilik durdonalari butun jahonga tanitdi. U faoliyati davrida 300 dan ortiq inshootlar masjidlar, madrasalar, saroylar, favvoralar hammom va ko'priklar qurilishiga boshchilik qilgan. Ushbu me'morni ismini toping?
A) Xoja Xalifa
B) Xoja Sinon
C) Piri Rais
D) Mulla Mahmud

598.(7.j.-34)Qaysi Turkiyalik dengiz sayyohi O'rta, Qora va Egey dengizlari atlasi — "Bahriya" ni yaratgan?
A) Xoja Xalifa
B) Evliya Chalabiy
C) Piri Rais
D) Mulla Mahmud

599.(7.j.-34)Qaysi Turkiyalik adib "Jahonnoma" asarida arab va Yevropa manbalari asosida jahonning turli mamlakatlari tasvirlangan?
A) Xoja Xalifa
B) Xoja Sinon
C) Evliya Chalabiy
D) Mulla Mahmud

600.(7.j.-34)Qaysi Turkiyalik adib "Sayohatnoma" nomli ko'p jildli asar yozgan?
A) Xoja Xalifa
B) Xoja Sinon
C) Piri Rais
D) Evliya Chalabiy

601.(7.j.-35) Mo'g'ul qabilalari qadimdan qaysi hududlarda yashagan?

A) Sibir, Dashti qipchoq va Mo'g'ulistonda
B) Garbiy Sibir, Manjuriya va Shimoliy Xitoyda
C) Janubiy Sibir, Manjuriya va Mo'g'ulistonda
D) Janubiy Sibir, Oltoy va Uettisuvda

602.(7.j.-35)Mo'g'ullarda qaysi qadimgi udumlar yaxshi saqlanib qolgan edi?
A) xun olish, ajdodlar ruhiga sig'inish va shomonlik e'tiqodi
B) ajdodlar ruhiga sig'inish va totemizm e'tiqodi
C) yovuz va ezgu ruhlarga ishonch va ularga sig'inish va fetishizm e'tiqodi
D) xun olish, jamoa bo’lib yashash va animizm e'tiqodi

603.(7.j.-35)Shomonlik bu….?
A) tabiatdagi biror hayvonni inson hayotiga ta'sir ko'rsatishiga ishonish
B) tabiatdagi jonsiz narsalarni inson hayotiga ta'sir ko'rsatishiga ishonish
C) tabiatdagi yovuz va ezgu ruhlarga, ularning inson hayotiga ta'sir ko'rsatishiga ishonish
D) yagona tangrini borligiga ishonish

604.(7.j.-35)Mo'g'ullar ijtimoiy munosabatlarida mulkiy tabaqalanish qachondan kuchaya boshlaydi?
A) X asrdan
B) XI asrdan
C) XI asrning ikkinchi yarmidan
D) XII asrning ikkinchi yarmidan

605.(7.j.-35)Mo'g'ullarda  harbiy qabila ittifoqlarini kimlar boshqargan?
A) no'yonlar
B) xonlar
C) bahodirlar
D) botirlar

606.(7.j.-35)Mo'g'ullarda qabila ittifoqlari "harbiy demokratiya" bosqichida an'anaga binoan qanday masalalarni hal etardilar?
A) sulh, ittifoq tuzish, askar yig’ish, soliq kabi masalalarni
B) urush, sulh, ittifoq tuzish, xonni saylash kabi masalalarni
C) soliq yig’ish, oqsoqollarni saylash, ittifoqlar tuzish kabi masalalarni
D) urush va sulh, xonni saylash, yerlarni taqsimlash kabi masalalarni

607.(7.j.-35)Temuchin (Chingizxon) yashagan yillarni ko’rsating?
A) 1140-1211 yillar
B) 1115-1202 yillar
C) 1155-1227 yillar
D) 1160-1241 yillar

608.(7.j.-35)Temuchin (Chingizxon) qachon va qaerda ulug' xon deb e'lon qilinadi?
A) 1200-yili Irtish daryosi bo'yidagi qurultoyda
B) 1212-yili Yenisey (Enasoy) daryosi bo'yidagi qurultoyda
C) 1216-yili Kalka daryosi bo'yidagi qurultoyda
D) 1206-yili Onon daryosi bo'yidagi qurultoyda

609.(7.j.-35)Chingizxon so'zining ma’nosi…..?
A) "aqlli", "baquvvat", "toza qalb"
B) "kuchli", "qudratli", "toza"
C) "irodali", "qudratli", "elkador"
D) "kuchli", "baquvvat", "idrokli"

610.(7.j.-35)Mamlakatni markazlashtirish maqsadida Chingizxon qaerni o'z davlatining poytaxtiga aylantiradi?
A) Qoraqurum qal'asini
B) Xonbaliq qal'asini
C) Yettisuv shahrini
D) Bolasog’un shahrini

611.(7.j.-35)Mo'g'ullar qo'shini kimlar tomonidan boshqarilgan?
A) o’nboshi, ellikboshi, tumanboshilar tomonidan
B) bahodir, botir, merganlar tomonidan
C) yuzboshi, mingboshi, tumanboshilar tomonidan
D) botir, mergan, sechan, no'yonlar tomonidan

612.(7.j.-35)Mo'g'ullarda bahodir, botir, mergan, sechan, no'yonlar kimlar edi?
A) mo'g'ul xalqi oqsoqollari edi.
B) mo'g'ul harbiy zodagonlari edi.
C) mo'g'ul qo’shinining harbiy boshliqlari edi.
D) mo'g'ul hukmdorlarining maslahatchilari edi.

613.(7.j.-35)Mo'g'ullar hayotining o'zi, har qanday vaqtda otni egarlab yo'lga tushishga mos edi. Chunki ular…?
A) ko'chib yurishga odatlangan.
B) savdo bilan shugullangan.
C) faqat jang bilan shug’illangan.
D) ko'chma uy-o'tovlarda yashagan.

614.(7.j.-35)Mo'g'ullarning sevimli quroli bu….?
A) Arqon edi.
B) Palaxmon edi.
C) Kamon edi.
D) Nayza va qilich edi.

615.(7.j.-35)Mo'g'ullarda har bir ko'chmanchining kundalik hayotida ham, jang paytida ham albatta, nimasi bo'lishi lozim edi?
A) Arqoni
B) Palaxmoni
C) Kamoni

D) Nayza va qilichi

616.(7.j.-35)Ko'chmanchilar qo'shini odatda uchta qismga bo'lingan. Ular…?
A) Markaz, zahira va ikki qanot
B) Manglay, zahira va qanot
C) Markaz va ikki qanot
D) Manglay, keshik va qanot

617.(7.j.-35)Chingizxon ixtiyorida asosiy qo'shindan tashqari qanday nom bilan maxsus gvardiya tashkil etilgan?
A) "keshik"
B) "izofa"
C) "yanichar"
D) "kanbul"

618.(7.j.-35)Mo'g'ullar xoni huzuriga kirish istagidagi barcha kishilarning o'zlarigina emas, ularning sovg'a-in'omlari ham turli duo, yovuzliklardan "tozalanishi" lozim edi. Bunga ma'lum bir udum orqali erishilgan. U qanday udum edi?
A) shomonlar nazoratida katta gulxan ustidan sakratish udumi
B) shomonlar nazoratida avval suvdan, keyin esa, gulxandan o'tkazish udumi
C) shomonlar nazoratida ikki katta gulxan orasidan o'tkazish udumi
D) shomonlar nazoratida yog'och va jundan yasalgan butlar orasidan o'tkazish udumi

619.(7.j.-35)Mo'g'ullarda xalqni va hukmdorlarni asrovchi omillarni mujassamlashtirgan qudratli kuch..?
A) Yer
B) Olov
C) Suv
D) Quyosh

620.(7.j.-35)Chingizxon qachon Shimoliy Xitoyga qarshi urush boshlaydi?
A) 1211-yili
B) 1218-yili
C) 1223-yili
D) 1224-yili

621.(7.j.-35)Mo’g’illarning Yettisuv va Sharqiy Turkistonga qarshi yurishi qachon boshlangan?
A) 1211-yili
B) 1223-yili
C) 1224-yili
D) 1218-yili

622.(7.j.-35)Mo’g’illarning Xorazmshohlar davlatiga qarshi yurishi qachon boshlangan?
A) 1211-1214 yillar
B) 1219-1221 yillar
C) 1222-1228 yillar
D) 1223-1227 yillar

623.(7.j.-35)Mo’g’illar qachon Afg'oniston, Sharqiy Eronni egallab, Kavkaz orqali Dashti Qipchoqqa chiqadi?
A) 1211-yili
B) 1223-yili
C) 1224-yili
D) 1218-yili

624.(7.j.-35)Qaysi daryo bo'yida mo’g’illar qipchoqlarning ittifoqchisi sifatida ularga yordamga kelgan ruslar qo'shini mag'lub etadilar?
A) Irtish daryosi bo'yida
B) Yenisey (Enasoy) daryosi bo'yida
C) Kalka daryosi bo'yida
D) Onon daryosi bo'yida

625.(7.j.-36) Mo'g'ullarning 1235-yilgi qurultoyida O'qtoy qoon (xon) Chingizxonning Rus va Shimoliy Kavkaz yerlarini bosib olish haqidagi vasiyatini eslatdi. U qo'shinga kimni yetakchilik qilishini e'lon qiladi?
A) Jo'jini
B) Botuxonni
C) Chig’atoyni
D) Tulini

626.(7.j.-36) Qaysi yilda Chingizxon zabt etilgan hududlarni o'z o'g'illari: Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy va Tuliga taqsimlab beradi?
A) 1211-yili
B) 1223-yili
C) 1224-yili
D) 1218-yili

627.(7.j.-36) Mo'g'ullarning 1235-yilgi qurultoyida Rus va Shimoliy Kavkaz yerlarini bosib olishda to’planadigan qo’shinga Botuxon yetakchilik qilishi e'lon qilindi. Unga esa, qaysi sarkarda yordamga berildi?
A) Jo'jini
B) Chig'atoyni
C) Subutoy bahodirni
D) Uloq no’yonni

628.(7.j.-36) Chingizxon kimni taxt vorisi etib tayinlagan?
A) Jo'jini
B) Chig'atoyni
C) O'qtoyni
D) Tulini

629.(7.j.-36) Botu va Subutoylar 1237-yilning kuzida rus yerlariga hujum boshlab, dastlab qaerni egallashdi?
A) Ryazanni
B) Vladimirni
C) Suzdalni
D) Kiyevni

630.(7.j.-36) Mo'g'ullar 1238-1240-yillarda qaerlarni bosib oldi?
A) Vladimir, Suzdal, Kiyev, Galich, Volin
B) Chexiya, Vengriya, Polshani
C) Shimoliy Kavkaz, Moldaviya hududlarini
D) Volgabo'yi, Shimoliy Qora dengiz sohillarini

631.(7.j.-36) Mo'g'ullar tomonidan 1241—1242-yillari qaerlarni bosib olindi?
A) Chexiya, Vengriya, Polshaning bir qismi
B) Shimoliy Kavkaz, Moldaviya hududlari
C) Volgabo'yi, Shimoliy Qora dengiz sohillari
D) Vladimir, Suzdal, Kiyev, Galich, Volin

632.(7.j.-36) O'qtoyning qachon vafot etdi?
A) 1224-yili
B) 1236-yili
C) 1240-yili
D) 1243-yili

633.(7.j.-36) Volgabo'yi, Shimoliy Qora dengiz sohillari, Shimoliy Kavkaz, Moldaviya hududlari qaysi ulus tsakibiga kirgan?
A) Chig'atoy ulusiga
B) Jo'ji ulusiga
C) O'qtoy ulusiga
D) Tuli ulusiga

634.(7.j.-36) Oltin O'rdada muhim masalalarni qaysi organ hal etgan?
A) Beklarbegi
B) Vazir
C) dorug'a
D) Qurultoy

635.(7.j.-36) Oltin O'rdada ijro hokimiyatining boshlig'i…..?
A) Beklarbegi
B) Vazir
C) dorug'a
D) Qurultoy

636.(7.j.-36) Oltin O'rdada devon ishlarini …….. boshqargan.
A) dorug'a
B) Qurultoy
C) Vazir
D) Beklarbegi

637.(7.j.-36) Oltin O'rdada mahalliy boshqaruv kimning qo'lida bo'lgan?
A) Qurultoy
B) Vazir
C) Beklarbegi
D) Dorug'a va bosqoqlar

638.(7.j.-36) Rus knyazlari va aholisiga oliy hukmdor mo'g'ullar hokimi ekanligi e'lon qilinadi va qaysi knyaz ularning “ulug’i” deb tan olinadi?
A) Vladimir knyazi Aleksandr Nevskiy
B) Vladimir knyazi Yaroslav
C) Navgorod knyazi Aleksandr Yaroslavich
D) Moskva knyazi Yuriy Danilovich

639.(7.j.-36) Mo'g'ullar davlatida 1248-yili janubiy knyazliklardan boshlanib, 1257-yili shimoliy knyazliklarga ham yetib borgan tadbir bu….?
A) Umimiy soliq yig’ish tadbiri
B) Hashar tadbiri
C) Aholini ro'yxatga olish tadbiri
D) Aholini ommaviy jazolash tadbiri

640.(7.j.-36) Oltin O'rda XIV asrdan nechta viloyatga bo'lingan va ularda boshqaruviga oid masalalarni kim hal etgan?
A) Ikkita, Beklarbegi
B) Uchta, Devonbegi
C) To’rta, Ulusbegi
D) Beshta, Bosqoq

641.(7.j.-36) Oltin O'rda qo'shinini boshqargan va ba'zida xondan ham ko'proq mavqega ega bo’lgan lavozim…?
A) Beklarbegi
B) Devonbegi
C) Ulusbegi
D) Bosqoq

642.(7.j.-36)Mo'g'ullar davlatida 1248-1257-yillari aholining ro'yxatga olinishining yakunida mamlakat aholisi qanday to'lovga tortilgan?
A) talab
B) chiqim
C) kalon
D) yom

643.(7.j.-36) Mo'g'ullar davlatida aholidan shoshilinch yig'iladigan soliq ….?
A) talab
B) chiqim
C) kalon
D) yom

644.(7.j.-36) Oltin O’rdada soliq va bojlarni to'lanishini kimlar nazorat etishgan?

A) Beklarbegi
B) Devonbegi
C) Ulusbegi
D) Bosqoq

645.(7.j.-36) Mo'g'ullar imperiyasi bo'ylab tashkil etilgan yo'l bekatlari bu…?
A) Kalonlar
B) Yomlar
C) Bosqoqlar
D) Chiqimlar

646.(7.j.-36) Tarixchilarning hisobicha, XIII asrning ikkinchi yarmida mo'g'illar rus yerlariga necha martta talonchilik hujumlarini tashkil qilgan?
A) o'n ikki marta
B) o'n uch marta
C) o'n to'rt marta
D) o'n besh marta

647.(7.j.-36) Mo'g'illar bilan rus knyazlarining tinchlik siyosatini Vladimir knyazi Yaroslav boshlagan, undan keyin uni kim davom ettirgan?
A) Uning o'g'li Aleksandr Nevskiy
B) Navgorod knyazi Aleksandr Yaroslavich
C) Moskva knyazi Yuriy Danilovich
D) Xech kim davom ettirmagan

648.(7.j.-36) Eronda mustaqil davlat tuzgan Xuloku va uning vorislari esa Oltin O'rda bilan qaysi hududlarga egalik qilish masalasida raqobat qilgan?
A) Litva va Polshaga
B) Kavkazortiga
C) Misrga
D) Eronga

649.(7.j.-36) Xuloku ulusiga qarshi janglardan birida 1266-yili Botuxonning ukasi Berkaxon halok bo'ladi. Shundan keyin dushmanga qarshi kurashda Oltin O'rda qaysi davlat bilan ittifoq tuzadi?
A) Misr sultonlari bilan
B) Litva bilan
C) Polsha bilan
D) Hindiston bilan

650.(7.j.-36) Oltin O'rda davlati qachon o'z qudratining cho'qqisiga erishgan?
A) XVI asr boshida
B) XIII asr oxirida
C) XV asrda ikkinchi yarmida
D) XIV asrning birinchi yarmida

651.(7.j.-36) Oltin O'rda davlati kimning davrida o'z qudratining cho'qqisiga erishgan?
A) O'zbekxon (1312-1342) va uning og'li Jonibek (1342-1357) davrida
B) Botuxon va uning ukasi Berkaxon davrida
C) Jo'ji davrida
D) To'xtamishxon davrida

652.Oltin O'rda qudratini mustahkamlagan omillardan biri bu…?
A) X(7.j.-36) ristian dinining qabul qilinishi bo'ldi.
B) Markazlashgan davlatni tuzilishi bo'ldi.
C) Rus yerlarini bosib olilishi bo'ldi.
D) Islom dinining qabul qilinishi bo'ldi.

653.(7.j.-36) Mo'g'ullarning ko'pchiligi qaysi dinga mansub bo'lganlar?
A) Islomga
B) Majusiy – shomonlikka
C) Xristianlik diniga
D) Buddaviylik diniga

654.(7.j.-36) O'zbekxon qachon islomni davlat dini deb e'lon qiladi?
A) 1312-yilda
B) 1342-yilda
C) 1314-yilda
D) 1319-yilda

655.(7.j.-36) Oltin O'rdaning har ikki poytaxtini toping?
A) Saroy Botu va Berkaxon
B) Tula vaTyumen
C) Azov va Astraxan
D) Qoraqum va Bolasog'un

656.(7.j.-36) Oltin O'rda davrida Rossiyada vujudga kelgan va hozirga qadar mavjud shaharlarni toping?
A) Ufa, Galich, Azov, Astraxan
B) Tula, Tyumen, Volin, Navgorod
C) Saroy berka, Tyumen, Qazon, Suzdal
D) Tula, Tyumen, Azov, Astraxan

657.(7.j.-36) Shimoliy Kavkazdagi 1395-yilgi To'xtamishning Amir Temurdan mag'lubiyati Saroy, Saroy Berka, Astraxan shaharlarini vayron etilishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida…?
A) savdo yo'llari janub tomonga siljidi.
B) Oltin O'rdani uzil-kesil davlat sifatida tugallandi.
C) Oltin O'rda qator xonliklarga bo'linib ketdi.
D) To'xtamishxon vafot etdi.

658.(7.j.-36) Oltin O'rda XV asrning birinchi yarmida qator xonliklarga bo'linib ketadi. Ulardan eng yiriklari…?
A) Ufa, Galich, Azov,Qozoq xonliklari va Astraxan O'rdasi bo'lgan

B) Qozon, Volin, Navgorod va No'g'ay O'rdasi bo'lgan
C) Qrim, Qozon, Sibir, Saroy berka, Tyumen va Suzdal kinyazligi bo'lgan
D) Qrim, Qozon, Sibir, Qozoq xonliklari va No'g'ay O'rdasi bo'lgan

659.(7.j.-37)Xitoyda uzoq davom etgan siyosiy tarqoqlik va o'zaro urushlarga qaysi sulola (960-1279) chek qo'ydi?
A) Sin
B) Sun
C) Min
D) Xan

660.(7.j.-37)Xitoy janubida shakarqamish yetishtirish, shimoliy viloyatlarda esa ……… tobora rivojlangan?
A) pilla qurti boqish
B) sholi erishtirish
C) chorvachilik
D) paxtachilik

661.(7.j.-37)Xitoyda otlardan asosan nima maqsadda foydalangan?
A) Dehqonchilik maqsadida
B) Yuk tashish maqsadida
C) Harbiy maqsadda
D) Sport o'yinlarida

662.(7.j.-37)Xitoyda erkin dehqonlarning aksari qismida qancha mu yer bo'lgan?
A) 10-20 mu
B) 30-40 mu
C) 40-70 mu
D) 60-80 mu

663.(7.j.-37)Xitoyning yirik savdo va hunarmandchilik markazlari bo'lgan shaharlarni toping?
A) Pekin, Chendu va Uchan shaharlari
B) Ninbo, Xanchjou va Guanchjou shaharlari
C) Kayfin, Xanchjou va Ninbo shaharlari
D) Kayfin, Chendu va Uchan shaharlari

664.(7.j.-37)Xitoyda ipakdan shoyi so'zana — panno to'qish ixtiro qilinib qaysi asrda keng tarqaladi?
A) XI asrda
B) XII asrda
C) XIII asrda
D) XIV asrda

665.(7.j.-37)Xitoyda paxtadan gazlama tayyorlash qachondan boshlab rivojlana boradi?
A) XI asrdan
B) XII asrdan
C) XIII asrdan
D) XIV asrdan

666.(7.j.-37)Xitoyga paxta urug'ini dastlab, kimlar olib borgan?
A) yurtimiz savdogarlari
B) Hindistonliklar
C) Mo'g'illar
D) Sayohatchi Marko Polo

667.(7.j.-37)Marko Poloning yozishicha, Xitoyda ustaxonalarda qanchagacha kishi ishlatilgan?
A) 5 tadan 10 tagacha
B) 7 tadan 15 tagacha
C) 10 tadan 40 tagacha
D) 50 tadan 100 tagacha

668.(7.j.-37)Xitoyda qaysi port shaharlari Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan faol savdo olib borishgan?
A) Ninbo, Xanchjou va Guanchjou shaharlari
B) Pekin, Chendu va Uchan shaharlari
C) Ninbo, Xanchjou va Guanchjou shaharlari
D) Kayfin, Xanchjou va Ninbo shaharlari

669.(7.j.-37)Xitoy qachon mo'g'illar tomonidan to'liq bo'ysundirildi va yangi sulolasi qanday nom oldi?
A) 1351-yili, Sun
B) 1241-yili, Xenan
C) 1279-yili, Yuan
D) 1290-yili, Shandun

670.(7.j.-37)Xubilayxon Xitoyni boshqarishda o'zbek amaldorlaridan kimlarni qanday lavozimga tayinlangan?
A) Ahmadga - davlat moliyasi topshirilgan, Nasriddin va Masariylar lashkarboshilikka tayinlangan.
B) Nasriddinga - davlat moliyasi topshirilgan, Ahmad va Masariylar lashkarboshilikka tayinlangan.
C) Ahmadga -davlat maslahatchiligi topshirilgan, Nasriddin va Masariylar lashkarboshilikka tayinlangan.
D) Masariyga - davlat hazinasi topshirilgan, Nasriddin va Ahmadlar lashkarboshilikka tayinlangan.

671.(7.j.-37)Xenan va Shandun viloyatlarida 1351-yili boshlangan dehqonlar qo'zg'oloni tez orada butun mamlakatni qamrab oladi. Qo'zg'olonga kim boshchilik qilgan?
A) harbiy Chju Yuan-Chjan
B) harbiy Yuan Chjan
C) dengizchi Chjan Xe
D) rohib Chju Yuan-Chjan

672.(7.j.-37)Min imperiyasini tuzilgan yili va asoschisi?
A) 1351-yili, rohib Chju Yuan-Chjan
B) 1368-yili,Yuan Chjan
C) 1406-yili, dengizchi Chjan Xe
D) 1468-yili, harbiy Chju Yuan-Chjan

673.(7.j.-37)Min qo'shinlari mo'g'ullarni ta'qib etib ularning poytaxti Qoraqurumni egallab, yondirib yuboradi. Shu tariqa ko'chmanchilarning hujumlariga chek qo'yiladi. Bunda xitoyliklarga nimalardan foydalanishi qo'l keladi?
A) o'q otar miltiqlar va zambaraklardan
B) jangovor otlar va suvoriylardan
C) o'q-dori (porox) va zambaraklardan
D) o'q-dori (porox) va o'q otar miltiqlardan

674.(7.j.-37)1380-yilda Xitoyning janubida, shimoldagiga nisbatan 2,5 barobar ko'p aholi yashar edi. Buning asosiy sababi….?
A) janubda sholining ertapishar navlaridan 2-3 marta hosil olinishi edi.
B) janubda paxta ekilar va u jida qimmat narxda sotilar edi.
C) janubda bug’doydan 2-3 marta hosil olinar va qimmat narxda sotilar edi.
D) janubda asosiy shaharlar joylashgan va savdo-sotiq yaxshi rivojlangan edi.

675.(7.j.-37)XI asrda Xitoyga sholining ertapishar navlarini qaerdan keltirilgan?
A) Yaponiyadan
B) Hindistondan
C) O’rta Osiyodan
D) Tailanddan

676.(7.j.-37)Amir Temurning qo'qqisdan vafot etishi Xitoyga qarshi yurishning amalga oshmasligiga sabab bo'ladi, bu esa Min sulolasiga….?
A) 1405-yili Tailandni, keyinchalik Vyetnamni istilo qilishiga yo’l ochadi.
B) 1406-yili Vyetnamni, keyinchalik Mo'g'ulistonni istilo qilishiga yo’l ochadi.
C) 1408-yili Yaponiyani, keyinchalik Mo'g'ulistonni istilo qilishiga yo’l ochadi.
D) 1412-yili Sharqiy Turkistonni, keyinchalik Tibetni istilo qilishiga yo’l ochadi.

677.(7.j.-37)Chjan Xe boshchiligidagi tarkibida 62 ta kema, 30 ming jangchisi boigan harbiy dengiz floti 1405-1433-yillari, Zond arxipelagi, Shri Lanka va Hindistonga necha yurishlar tashkil qildi?
A) 4 marta
B) 5 marta
C) 6 marta
D) 7 marta

678.(7.j.-37)Xitoy harbiy dengiz floti boshlig’i Chjan Xe qaysi dinga e’tiqod qilgan?
A) Buddaviylikka
B) Xristianlikka
C) Islomga
D) Konfitsiylikka

679.(7.j.-37)Xitoy imperatorlari 1415-1420-yillari qaerga elchilar yuborgan?
A) Samarqandga
B) Eronga
C) Shri Lankafa
D) Hindistonga

680.(7.j.-38)Yaponiyada yirik yer egalari ma'lum toifalarga bo'lingan. Ulardan eng nufuzlilari qanday nomlangan?
A) xanke deb
B) ryoka deb
C) syoen deb
D) mikado deb

681.(7.j.-38)Yaponiyada XI—XII asrlarga kelib yer egalarining mulklari qanday nomlangan?
A) ryokalar
B) xanke
C) syoenlar
D) mikado

682.(7.j.-38)Xankelarning vassallarining nomi…?
A) ryokalar
B) xanke
C) syoenlar
D) mikado

683.(7.j.-38)Yaponiyada harbiy bo’linmalarning jangchilari….?
A) Xankelar
B) Syoenlar
C) Mikadolar
D) Samuraylar

684.(7.j.-38)XII asrda Yaponiyada mikado bu….?
A) Imperator
B) Mulkdor
C) Harbiy qo'mondon
D) Harbiy bo’linma jangchisi

685.(7.j.-38)Yaponiyada XII asr oxirida syogunlik kim tomonidan o'rnatilgan?
A) Minamoto
B) Kioto
C) Yosimitsu Asikaga
D) Kamakura

686.(7.j.-38)XII asr oxirida Yaponiyada syogun bu….?
A) Imperator
B) Mulkdor
C) Harbiy qo'mondon
D) Harbiy bo’linma jangchisi

687.(7.j.-38)Minamoto davlatni qaerdan turib boshqgan?
A) Kiotodan
B) Kamakuradan
C) Sakaidan
D) Xyogodan

688.(7.j.-38)Manbalarda yozilishicha, 1483-yili savdogarlar chet mamlakatlarga qancha dona qilich olib ketganlar?
A) 55 ming
B) 58 ming
C) 63 ming
D) 67 ming

689.(7.j.-38)Yaponyada yirik, aholi zich yashaydigan port shaharlarini toping.
A) Kioto, Nagasaki, Xyogo, Xakata
B) Sakai, Kamakura, Xerosima, Nagasaki
C) Xyogo, Sakai, Xakata, Nagasaki
D) Xakata, Kioto, Nagasaki, Kamakura

690.(7.j.-39) Hindistonning shimoliy hududlariga turk va afg'on qabilalarining hujumlari va joylashuvi ayniqsa qaysi asrlarda kuchaygan?
A) IX-X asrlarda
B) XI-XII asrlarda
C) X-XIII asrlarda
D) XI-XIV asrlarda

691.(7.j.-39) Hindistonda musulmonlar bosib olgan viloyatlarda poytaxti Dehli bo'lgan sultonlik qachon vujudga keladi?
A) 1109-yili
B) 1200-yili
C) 1206-yili
D) 1366-yili

692.(7.j.-39) Dehli sultonligining ilk hukmdori Qutbiddin Oyboqning qo'shini asosini qaysi qabilalardan tuzilgan suvoriylar tashkil qilgan?
A) turkiy
B) afg’on
C) hind
D) eron

693.(7.j.-39) Dehli sultonligini tashkil topgan va tugatilgan yillarini toping/
A) 1206-1526 yillar
B) 1206-1636 yillar
C) 1216-1576 yillar
D) 1206-1684 yillar

694.(7.j.-39) Qaysi asrlarda Dehli sultonligining barcha hududlarida musulmonlar hokimiyati uzil-kesil o'rnatiladi?
A) IX-X asrlarda
B) XI-XII asrlarda
C) X-XIII asrlarda
D) XII—XIII asrlar

695.(7.j.-39) Sulton Qutbiddin Oyboqning vafotidan so'ng uning taxtini 1211-1236 yillarda kim boshqardi?
A) Muhammad Tug'luq
B) Shamsiddin Eltutmish
C) Femzshoh Tug'luq
D) Alouddin Xiljiy

696.(7.j.-39) Dehli sultonligida kimning boshqaruvi paytida Panjob, Sind va Bengaliyalar bo'ysundiriladi?
A) Muhammad Tug'luq
B) Alouddin Xiljiy
C) Shamsiddin Eltutmish
D) Femzshoh Tug'luq

697.(7.j.-39) Dehli sultonligida yer egaligining asosiy turi bu….?
A) vaqf
B) xolisa
C) xususiy yerlar
D) iqto'

698.(7.j.-39) Kim manbalarda yozilishicha Dehli shahrining atrofidagi qishloqlarni o’zining shaxsiy gvardiyasining 2000 suvoriysiga iqto'ga bo'lib bergan?
A) Shamsiddin Eltutmish
B) Femzshoh Tug'luq
C) Muhammad Tug'luq
D) Alouddin Xiljiy

699.(7.j.-39)Dehli sultonligida qaysi yerlar davlat ixtiyoridagi yerlar bo'lib, undan olinadigan soliqlar xazinaga tushib, davlat xarajatlari va maxsus qo'shinni ta'minlash uchun ishlatilgan?
A) vaqf
B) iqto'
C) xolisa
D) xususiy yerlar

700.(7.j.-39)Eltutmishning vafotidan so'ng kim taxt uchun bo’lgan urushlarda g'olib chiqqan va taxtni egallagan?
A) Muhammad Tug'luq

B) Alouddin Xiljiy
C) Ibrohim Lo'diy
D) Femzshoh Tug'luq

701.(7.j.-39) Dehli sultonligida Alouddin Xiljiydan keyin 1325-yilida kim taxtga keladi?
A) Ibrohim Lo'diy
B) Femzshoh Tug'luq
C) Muhammad Tug'luq
D) Eltutmish

702.(7.j.-39) Kim o'zini "Iskandar Zulqarnaynning davomchisi" deya nomlagan?
A) Muhammad Tug'luq
B) Ibrohim Lo'diy
C) Femzshoh Tug'luq
D) Eltutmish

703.(7.j.-39) Qaysi sulton poytaxtni Davlatobod (avvalgi Devagiri)ga o'tkazadi?
A) Femzshoh Tug'luq
B) Muhammad Tug'luq
C) Eltutmish
D) Ibrohim Lo'diy

704.(7.j.-39) Muhammad Tug'luqning oltin va kumush pullar bilan teng muomalada bolishi moljallangan mis tangalarini zarb qildirishi qanday natijaga olib kelgan?
A) mis tangalar mamlakat iqtisodiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.
B) mis tangalar muomaladagi asosiy pulga aylanadi.
C) oltin va kumush pullar qadrsizlanib ketidi.
D) mis tangalar ko'p o'tmay qadrsizlanib ketidi.

705.(7.j.-39) Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilikning yuksalishi va oqilona boshqaruv qaysi sultonga xalq homiysi sifatida shuhrat keltiradi?
A) Femzshoh Tug'luq
B) Muhammad Tug'luq
C) Eltutmish
D) Ibrohim Lo'diy

706.(7.j.-39) Dehlining qaysi sultoni 1398—1399-yillar Amir Temur qo'shinlariga qarshi kurashgan va yengilgan?
A) Femzshoh Tug'luq
B) Muhammad Tug'luq
C) Mahmud
D) Ibrohim Lo'diy

707.(7.j.-39) Hindiston 1414-1451yillar qaysi sulola taxtga kelgan?
A) Sayyidlar sulolasi
B) Boburiylar sulolasi.
C) Lo'diylar sulolasi.
D) Tug'luqlar sulolasi

708.(7.j.-39) Sayyidlar sulolasini kim taxtdan tushirgan?
A) Zahiriddin Bobur
B) Bahlul Lo'diy
C) Femzshoh Tug'luq
D) Ibrohim Lo'diy

709.(7.j.-40) Olimlarning fikricha, Amerika qit'asiga dastlabki odamlar qaerdan va qachon o’tgan?
A) Sharqiy Yevropadan hozirgi Bosfor bo'g'ozi orqali, buyuk muzlik davrida, bundan 60 ming yil avval.
B) Sharqiy Osiyodan hozirgi Bering bo'g'ozi orqali buyuk muzlik davrining songida bundan 40 ming yil avval.
C) Shimoliy Osiyodan hozirgi Boltiq dengizi orqali buyuk muzlik davrida, bundan 60 ming yil avval.
D) Shimoliy Osiyodan hozirgi Bering bo'g'ozi orqali buyuk muzlik davrida, bundan 40 ming yil avval.

710.(7.j.-40) Kechua, mayya, astek, olmek va tolteklar Amerika qit’asining qaysi hududlarida yashaganlar?
A) Shimoliy va Markaziy Amerikaning tog' hududlarida
B) Janubiy Amerikaning tog'oldi va adir hududlarida
C) Markaziy va Janubiy Amerikaning tog' va tog'oldi hududlarida
D) Markaziy va Sharqiy Amerikaning past tekisliklarida

711.(7.j.-40) Amerika qabilalari o’z yerlarda yevropaliklarga ma'lum bo'lmagan qanday ekinlari o'stirganlar?
A) kartoshka, bodiring, kungaboqar, karam, kakao, piyoz
B) makkajo'xori, kartoshka, kungaboqar, pomidor, kakao, tamaki
C) makkajo'xori, kartoshka, karam, pomidor, yeryong’oq
D) kungaboqar, apelsin, tarvuz, sarimsoq piyoz, piyoz, tamaki

712.(7.j.-40) Amerikaning katta qismida xonakilashtirilgan hayvonlar bo'lmagan. Bu qit'aga keyinchalik Yevropadan qaysi hayvonlar olib kelingan?
A) Ot, sigir, qo'y va echkilar
B) It, sigir, fil va echkilar
C) Cho’chqa, sigir, tuya va qo'ylar

D) Sigir, ot, it, va echkilar

713.(7.j.-40) Markaziy Amerikaning Yukatan yarim orolida (hozirgi Meksika) chakalakzorlar bilan qoplangan tog' oldi hududlarida qadimdan qaysi xalqlar yashab kelgan?
A) toltekl xalqlari
B) kechua xalqlari
C) olmek xalqlari
D) mayya xalqlari

714.(7.j.-40) Amerika qabilalari shimolda qanday va janubda qanday uy hayvonlarini boqishgan?
A) shimolda otni, janubda tuyani boqishgan
B) shimolda chochqani, janubda tuyasimon - lamani boqishgan
C) shimolda itni, janubda qo'ylarni boqishgan
D) shimolda itni, janubda tuyasimon - lamani boqishgan

715.(7.j.-40) Amerikada aholining katta qismi urug'chilik jamoasida yashagan. Faqatgina dehqonchilik bilan shug'ullangan qaysi qabilalar o'zlarining davlatlarini barpo qilganlar?
A) toltek, astek va olmeklar
B) mayya, astek va kechualar
C) mayya, olmek va tolteklar
D) olmek, toltekl va kechualar

716.(7.j.-40) Mayyalarda yer kimning mulki hisoblangan?
A) Zodogonlar mulki
B) Davlat mulki
C) Qishloq mulki
D) Jamoa mulki

717.(7.j.-40) Qachon mayyalarda shahar-davlatlar vujudga kelgan?
A) Milodiy I ming yillikda
B) Miloddan avvalgi III ming yillikda
C) Milodiy II asrda
D) Miloddan avvalgi 1 ming yillikda

718.(7.j.-40) Mayyalarda shahar-davlatlarni kim boshqargan?
A) "osmon o'g'ili"
B) "buyuk hudo"
C) "osmon kishisi"
D) "buyuk kishi"

719.(7.j.-40) Mayyalarda yozuv qachon yaratilgan?
A) milodiy asr boshlarida
B) miloddan avvalgi I asrda
C) milodiy asr so'ngida
D) miloddan avvalgi I mingyillikda

720.(7.j.-40) Kimlar mayyalar hayotida muhim o'rin tutib, jamoa a'zolariga dehqonchilik ishlarini bajarish muddatlarini belgilab berganlar?
A) hukmdorlar
B) dehqonlar
C) kohinlar
D) zodogonlar

721.(7.j.-40) Mayyalar hindlardan ham avval kashf etgan?
A) Paxta ekishni
B) Adabiy tilni
C) “nol”ni
D) Sholi ekishni

722.(7.j.-40) Markaziy Amerikaning hozirgi Meksika hududida, dengiz sathidan 2000 metr balandlikdagi yassi tog'liklarda mo'tadil iqlimli, unumdor tuproqli ko'rkam bir vodiy bo'lib, u yerda qaysi qabilalar yashagan?
A) Tolteklar
B) Asteklar
C) Olmeklar
D) Mayyalar

723.(7.j.-40) Mayya xalqiga tegishli rasadxona qaerda qurilgan edi?
A) Mamlakatining poytaxti — Chichen-Itsada
B) Tenochtitlan shahrida
C) Kusko shahrida
D) And togiari yon bag'rida

724.(7.j.-40) Tenochtitlan shahriga qachon va kimlar asos solganlar?
A) IX asrda Mayyalar
B) XII asrda Olmeklar
C) XIV asrda Tolteklar
D) XII asrda Asteklar

725.(7.j.-40) Mayyalar o'zlarining zinapoyali ehromlarini, saroy va ibodatxonalarini qaerlarda barpo etganlar?
A) tog'lar ustida
B) maxsus tanlangan pasttekisliklarda
C) maxsus yasalgan tepaliklar - baland poydevorlar ustida
D) tabiiy tepaliklar ustida

726.(7.j.-40) Qaysi xalqlar yer taqchil bo'lganidan ko'l tagidan suv o'simliklari va unumdor loyni ko'tarib, sollarda "suzuvchi dalalar" yaratgan?
A) Tolteklar
B) Asteklar
C) Olmeklar
D) Mayyalar

727.(7.j.-40) Asteklarda tlatoani kim?

A) Lashkarboshi, oliy hukmdor va bosh kohin
B) Oliy hukmdor va bosh kohin
C) Bosh kohin va oily hudo
D) Lashkarboshi va oliy bosh qo’mondon

728.(7.j.-40) Urushlar paytida asteklar qanch kishilik qo'shin tuzish imkoniyatiga ega bo'lgan?
A) 100 ming
B) 150 ming
C) 200 ming
D) 250 ming

729.(7.j.-40) Asteklar xo'jaligining asosi sug'orma dehqonchilik bo'lib, ularda eng muhim ekin …… bo’lgan.
A) qovoq va pomidor
B) kakao
C) tamaki va paxta
D) makkajo'xori

730.(7.j.-40) Asteklar kimlarning ixtirosi asosida o'zlarining quyosh taqvimini yaratganlar?
A) Mayyalar
B) Tolteklar
C) Asteklar
D) Olmeklar

731.(7.j.-40) Asteklarda kimning sharafiga odamlar ham qurbonlik qilingan?
A) Quyosh xudosi sharafiga
B) Urush xudosi sharafiga
C) G’alaba xudosi sharafiga
D) Hukumdor xudosi sharafiga

732.(7.j.-40) Piktografik yozuv yozuvning qanday turi hisoblanadi?
A) ma'lumotning umumiy mazmunini turli belgilar ketma-ketligi orqali tasvirlash
B) ma'lumotni ierogliflar orqali yoki ieroglif rasmlar ketma-ketligi orqali tasvirlash
C) ma'lumotning umumiy mazmunini mixxatsimon rasmlar ketma-ketligi orqali eslab qolish va tasvirlash
D) ma'lumotning umumiy mazmunini rasm orqali yoki rasmlarni ketma-ketligi orqali eslab qolish maqsadida tasvirlash

733.(7.j.-40) Piktografik yozuv qaysi davridan beri ma'lum?
A) So’ngi poleolit davridan
B) Mezolit davridan
C) Neolit davridan
D) Eneolit davridan

734.(7.j.-40) Poytaxt Tenochtitlanda oddiy xalq bolalari uchun mo’ljallangan maktablarda ularga qanday darslar o'rgatilgan?
A) Dehqonchilik va hunarmandchilik o'rgatilgan
B) tarix, husnixat, o'qish, hisoblash, astronomiya, she'riyat va notiqlik san'ati o'rgatilgan
C) faqat harbiy ish o'rgatilgan
D) Dehqonchilik va hunarmandchilik va harbiy ish o'rgatilgan

735.(7.j.-40) Janubiy Amerikaning And togiari yon bag'rida minglab kilometrga cho'zilgan vohalarda qaysi halqlarni davlati vujudga kelgan?
A) Olmeklarni
B) Inklarni
C) Tolteklarni
D) Asteklarni

736.(7.j.-40) Kechua tillariga mansub inklar XII—XIII asrlarda Urubamba daryosi havzasida qaysi shaharga asos soladilar?
A) Chichen-Itsaga
B) Tenochtitlan shahriga
C) Kusko shahriga
D) Tauan Tinsuyyuga

737.(7.j.-40) Qaysi voqeadan so'ng Tauan Tinsuyyu (kechua tilida "dunyoning to'rt tomoni”) davlati shakllana boshlaydi?
A) Inklar aymara, chimu va boshqa qabilalar yerlarini bosib olgandan so’ng
B) 1438-yili qo'shni qabilalar Kuskoga xavf solgan bir paytda kechualar birlashib bosqinchilarga zarba bergandan so’ng
C) And tog'laridan Tinch okeaniga qadar ulkan masofa egallangandan so’ng
D) Inklar XII— XIII asrlarda Urubamba daryosi havzasida Kusko shahriga asos solganidan so’ng

738.(7.j.-40) Inklarda kipu bu…?
A) “osmon kishisi"
B) "buyuk kishi"
C) "tugunli xat"
D) oliy hukmdor

739.(7.j.-40) Inklar davlatni kim boshqargan?
A) Tlatoani
B) "Quyoshning o'g'li"
C) “Buyuk kishi”
D) Sapa Inka (Oliy Inka)

740.(7.j.-40) Inklarda asosiy ekinlar…..?
A) tamaki va loviya bo’lgan
B) kartoshka va makkajo'xori bo’lgan
C) qovoq va paxta bo’lgan
D) ananas va banan bo’lgan

741.(7.j.-40) Inklarda chorvachilikning o'rni ham muhim bolib, tuyasimon lama va alpakalar faqat

go'sht va jun uchun boqilmasdan, ulardan yana qanday maqsadlarda foydalanilgan?
A) urushlarda
B) dehqonchilikda
C) go'zallik uchun
D) yuk tashish uchun

742.(7.j.-40) Inklar poytaxt Kuskoni viloyatlar bilan bog'lash uchun umumiy uzunligi qancha kilometr bo'lgan tosh yo'llarni barpo etilganlar?
A) 15 ming kilometr
B) 40 ming kilometr
C) 75 ming kilometr
D) 150 ming kilometr

743.(7.j.-40) Inklarda kipu (tugunli xat) ning sirlari faqat kimlarga ma'lum edi?
A) astronomlarga
B) ruhoniylarga
C) hukmdorlarga
D) dehqonlarlarga

744.(7.j.-40) Inklarda tabiblar inson ustida qanday jarrohlik muolajalarini amalga oshirishni bilganlar?
A) umirtqa suyagida jarrohlik muolajalarini amalga oshirishni bilganlar
B) ko'z bilan bog'liq jarrohlik muolajalarini amalga oshirishni bilganlar
C) bosh suyagida jarrohlik muolajalarini amalga oshirishni bilganlar
D) yuragida jarrohlik muolajalarini amalga oshirishni bilganlar

745.(7.j.-41) Afrika aholisining aksari qismi qachongacha tashqi dunyodan ajralgan holda yashagan?
A) Mil. avv. I ming yillik oxirigacha
B) Milodiy I ming yillik oxirigacha
C) Mil. avv. II ming yillikgacha
D) Milodiy I ming yillikgacha

746.(7.j.-41) Afrikaning qaysi hududlarida temir tishli chopqilar bilan yerga ishlov berilgan?
A) Qit'aning tropik o'rmonlarida
B) Afrikaning Misrdan boshqa barcha hududlarida
C) Sahroi Kabirning atroflarida
D) Savanna hududlarida

747.(7.j.-41) Afrikaning qaysi hududlarida qanday qabilalar yashaganligini toping.
1) Sahroning janubida
2) Sharqda
3) G'arbiy Afrikada
a) barbar va tuareglar
b) fulbe
c) masai, galla
d) sidamo, tigrelar
A) 1-a, 2-b, 3-c va d
B) 1-a, 2-c va d, 3-b
C) 1-b va d, 2-a, 3-c
D) 1-a, 2-c, 3-b va d

748.(7.j.-41) Afrikaning qaysi qabilalari chorvachilik bilan shug'ullangan?
A) tuareglar
B) fulbelar
C) masai va gallalar
D) tigrelar

749.(7.j.-41) Afrikaning Sharqida Misr, Arabiston va Hindistonlar bilan savdo aloqalari ta'sirida qadim zamonlardan qaysi davlatlar tashkil topgan edi?
A) Aksum(hozirgi Efiopiya) va Nubiya
B) Aukar va Gana
C) Tombuktu
D) Gao Mali va Aksum (hozirgi Efiopiya)

750.(7.j.-41) Qaysi davlat VIII asrda vujudga kelib X asrda o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishadi.
A) Gana
B) Mali
C) Songai
D) Aksum

751. (7.j.-41) Arab savdogarlari VII asrdan G'arbiy Sudan yerlariga, O'rta dengiz sohillaridan Afrikaga yuksak qadrlanuvchi maxsulotlarni olib kelgan. Ushbu maxsulotni toping?
A) oltin
B) kedr yog'ochi
C) tuz
D) chorva mollari

752. (7.j.-41) Afrikadagi Aukar, Gana, Tombuktu, Gao va Mali bular…..?
A) Savdo yollari kesishgan joylardagi qasaba - qo'rg'onlar
B) Daslabki shahar-davlatlar
C) Dastlabki yirik davlatlar
D) Savdo yollari kesishgan joylardagi karvansaroylar

753. (7.j.-41) Gana podshosi va zodagonlari qaysi maxsulotlar savdosidan katta foyda olgan?
A) oltin va kumush
B) novshadil va tuz
C) yoqut va chorva mollari
D) oltin va tuz

754. (7.j.-41) Gana podshoning kuchli qo'shini bo'lib undagi 200 ming askarning deyarli qanchasini kamonchilar tashkil etgan?
A) 20 mingini
B) 30 mingini
C) 40 mingini
D) 50 mingini

755.(7.j.-41) Marokash sultoni Abu Bakr qachon Ganani istilo qilib, uning podshosi va zodagonlarini islom dinini qabul qilishga majbur qiladi?
A) 1026-yili
B) 1087-yili
C) 1076-yili
D) 1142-yili

756.(7.j.-41) Ganada qachon bo’lib o’tgan xalq qo'zg'oloni marokashliklar hukmronligiga chek qo'ygan?
A) 1026-yili
B) 1087-yili
C) 1076-yili
D) 1142-yili

757.(7.j.-41) Gana davlati o'rnida keyinchalik qaysi davlat vujudga keledi?
A) Aksum
B) Mali
C) Aukar
D) Tombuktu

758.(7.j.-41) Mali davlat sifatida qachon vujudga kelgan va uning axolisi islom dinini qachon qabul qilgan?
A) VII asrda vujudga kelgan va X asrda islomni qabul qilgan.
B) VIII-IX asrlarda vujudga kelgan va XI asrda islomni qabul qilgan.
C) IX-X asrlarda vujudga kelgan va XII asrda islomni qabul qilgan.
D) VI-VII asrlarda vujudga kelgan va VIII asrdayoq islomni qabul qilgan.

759.(7.j.-41) Qachon Mali o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishgan?
A) X asrda
B) XI asrda
C) XII asrda
D) XIII asrda

760.(7.j.-41) Mali davlatida 1230-1255 yillarda hukmronlik qilgan ko'p sonli qo'shin tuzib, karvon yo'llari o'tadigan hududlarni, oltin konlarini, qolaversa qadimgi Gana yerlarini bosib olgan shaxsni toping?
A) Muso I
B) Abu bakr
C) Sundiata Keyt
D) Muso II

761.(7.j.-41) 1324-yilda Makkaga haj safarini uyushtirgan va safarga ko'p oltin olib yo'lda ularni, sahiylik bilan tarqatib brogan Mali hukmdorini toping?
A) Muso I
B) Abu bakr
C) Sundiata Keyt
D) Muso II

762.(7.j.-41) Mali davlatining poytaxti bu…?
A) Songai
B) Gao
C) Niara
D) Kilva

763.(7.j.-41) Mali qachon butunlay inqirozga uchrab parchalanib ketadi?
A) XV asrda
B) XIII asrda
C) XIV asrda
D) XVII asrda

764. (7.j.-41) Songai davlatiga asos solingan yil va uning asoschisini toping?
A) XII asr oxiri, asoschisi – hukmdor Alm
B) XIII asr oxiri, asoschisi – hukmdor Muso I
C) XIV asr oxiri, asoschisi – hukmdor Alm
D) XVII asr oxiri, asoschisi – hukmdor Manelik

765.(7.j.-41) Songaining asosiy daromad manbayini toping.
A) chorva mollari savdosi va tuz konlari
B) tuz savdosi va oltin konlari
C) kumush va oltin konlari hamda savdosi
D) tranzit savdosi va oltin konlari

766. (7.j.-41) Aksum davlati Afrikaning qaysi hududida vujudga kelgan va uning yuksalishi qaysi asrlarga to’g’ri keladi?
A) Hozirgi Misrning janibida, yuksalishi V—VII asrlarga to'g'ri keladi.
B) Hozirgi Efiopiyaning shimolida, yuksalishi IV—V asrlarga to'g'ri keladi.
C) Hozirgi Liviyaning sharqida, yuksalishi II—III asrlarga to'g'ri keladi.
D) Hozirgi Efiopiyaning g’arbida, yuksalishi VI—VIII asrlarga to'g'ri keladi.

767.(7.j.-41) Aksum hukmdori va uning a'yonlari qaysi davlatlar bilan yaqin aloqada bo’lganlari uchun xristian dinini qabul qilgan?
A) Rim imperiyasi va Vizantiya
B) Rim imperiyasi va Ispaniya

C) Vizantiya va Vatikan
D) Buyuk Karl imperiyasi va Vizantiya

768.(7.j.-41) Aksum hududida XII asrda qayta tiklangan Efioplarning xristian davlatida, XIII asrda taxtga kelgan qaysi sulola 1974-yilga qadar (Efiopiyada) imperator bolib qoladi?
A) Maneliklar sulolasi
B) Sulaymonlar sulolasi
C) Almlar sulolasi
D) Solomonlar sulolasi

769.(7.j.-41) Rivoyatlarga ko'ra, Aksumning birinchi hukmdori Manelik - podsho Sulaymonning kimdan tug'ilgan o'g'li bo'lgan?
A) Muso I ning qizidan
B) Vizantiya malikasidan
C) Arabiston malikasidan
D) Almlar sulolasidan

770.(7.j.-41) Arablarning Sharqiy Afrikadagi dastlabki savdo qo'rg'onlari qaysi asrlarda shakllangan?
A) V-VI asrlarda
B) VIII-IX asrlarda
C) III-IV asrlarda
D) IX-XII asrlarda

771.(7.j.-41) Zanjulami bu…?
A) negr qullar
B) qimmatbaho tuz
C) so’zlashuv tili
D) negr qabilalari

772.(7.j.-41) Arablar ta'siridagi Sharqiy Afrika sohillaridagi aralash aholi qaysi  tilda so'zlashgan?
A) arab tilida
B) hind-eron tilida
C) suaxili tilida
D) arab-hind tilida

773.(7.j.-41) Kimlar Afrika hududida Mogadishu, Malindi, Mombasa, Kilva, Zanzibar kabi shaharlarga asos solganlar?
A) Eron savdogarlari
B) Arab savdogarlari
C) Niger savdogarlari
D) Hind savdogarlari

774.(7.j.-41) Aksumda IV asrdayoq o’tkazilgan bu islohot hozirgi kungacha Efiopiyada saqlanib qolgan. Mazkur islohotni toping.
A) Yer-suv islohoti
B) Mahalliy din islohoti
C) Mahalliy yozuv islohoti
D) Ta’lim islohoti

775.(7.j.-41) Afrikadagi qaysi madrasada ilohiyotdan tashqari tarix, fiqh, matematika, astronomiya kabi fanlar o'qitilgan?
A) Mombasa madrasasida
B) Kilva madrasasida
C) Zanzibar madrasasida
D) Tombuktu madrasasida

776.(7.j.-41) Afrikaliklar yog'och va jezdan odamlarni hozirgi kungacha hayratlantirib kelayotgan qanday sa’nat asarlarini yaratganlar?
A) saroy va ibodatxonalar
B) haykallar va niqoblar
C) ibodatxona va kitoblar
D) ot-arava va qurollar

777.(7.j.-41) Benindagi shoh saroyida jezdan ishlangan podsho va a'yonlari bo'rtma rasmlarida nimalar aks ettirilgan?
A) ov va urushlar hamda saroy hayoti sahnalari
B) saroy va ibodatxona rasmlari
C) ot-arava va qurollar rasmlari
D) xalq bayrami rasmlari